

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK _____

**MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»
Magistratura bo‘limi boshlig‘i
N.I. Asqarov _____

“ _____ ” _____ 2017-yil

«HIMOYAGA QO‘YILDI»
Kafedra mudiri
D.A. Nabiyeva _____

“ _____ ” _____ 2017-yil

**“SULTONXO‘JA ADO VA UNING ADABIY MEROSI”
MAVZUSIDA**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Bajardi: Madumarov O‘tkirbek Sobirjonovich
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: M. Tojiboyeva
Filologiya fanlari nomzodi

ANDIJON – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3–7-bet
ASOSIY QISM:	
I BOB. Qo‘qon adabiy muhitining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni.....	8–36-bet
1-fasl. Tarixiy sharoit va mumtoz adabiyot rivoji.....	8–22-bet
2-fasl. Qo‘qon adabiy muhitida g‘azal janri.....	23–36-bet
II BOB. Sultonxo‘ja Adoning hayoti va poetik merosi	37–59-bet
1-fasl. Adoning shaxsiyati. Turli manbalarda uning ijodi bilan bog‘liq ma‘lumotlar haqida.....	37–47-bet
2-fasl. Adoning badiiy asarlarda tarixiy obraz sifatidagi ishtiroki.....	48–59-bet
III BOB. Sultonxo‘ja Ado ijodida mumtoz adabiyot an‘analarining davom ettirilishi.....	60–83-bet
1-fasl. Ado g‘azallarining badiiy xususiyatlari.....	60–72-bet
2-fasl. Ado ijodida ruboiy-mustazodlar.....	73–83-bet
XULOSA.....	84–86-bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	87–88-bet
ILOVA.....	89-bet

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixining noma'lum sahifalarini, milliy adabiyotimiz tarixini qaytadan o'rganish, asossiz ravishda unutilgan ijodkorlar hamda tafakkurimizning boy ilmiy ijodiy merosini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga keng yo'l ochildi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining adabiy-tarixiy merosida mumtoz adabiy asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Ana shunday asarlarni, merosimizni haqqoniy o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu masalada birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid 10 minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Otabobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi¹».

Shu ma'noda o'zbek adabiyoti tarixida Qo'qon adabiy muhiti alohida va salmoqli o'rin egallaydi. Ushbu adabiy muhit yetishtirib bergan ijod ahli taraqqiyotimizning turli davrlarida adabiy harakatning faol ishtirokchilari bo'lishgan. Ularning asarlari xalqimizning o'lmas ma'naviy mulkiga aylangan. Mumtoz adabiyotning turli janrlaridagi bitiklar ulkan meros sifatida bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ularning ko'plari bugun qayta-qayta nashr etilib, kitobxonlarga yetkazilmoqda. Lekin, mazkur davr adabiyotning o'rganish doirasi kengligidan muhitning bir qancha shoirlari haqida hanuz to'la-to'kis ma'lumotga ega emasmiz.

Yoki «sho'ro davrida ... adabiy muhitning tashabbuskori va homiysi bo'lgan Amiriy va Fazliy, Ado, Vazir, Nola, Naqib, Oshiq, Mir, Asad, Ma'yus taxalluslari

¹ Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". T.7.–Toshkent. O'zbekiston, 1999. 132-bet

bilan ijod qilgan uning a'yonu amaldorlari asarlariga «saroy adabiyoti» tamg'asi bosilib, ular bir chekkaga surib qo'yildi».²

Ana shunday ijodkorlardan biri Xoja Ubaydulloh Ahror avlodlaridan bo'lgan Sul-tonxon to'ra Adodir. Shoirning tarjimai holi, adabiy merosi shu kunga qadar keng ko'lamda tadqiq etilgan emas. Sul-tonxon to'ra Ado va uning ijodiga oid ma'lumotlarni Abu Tohirxojaning «Samariya», P. Qayyumiyning «Tazkirayi Qayyumiy», B. Valixo'jaevning «Buyuk ma'naviy murshid», P.I. Demezov va I.V. Vitkevichlarning «Zapiski o Buxarskom xanstve» kabi kitoblari, E.Shodiev, A.Erkinov maqolalari, ayrim qo'lyozmalarda uchratdik. Shuningdek, o'sha davr bilan bog'liq bo'lgan tarixiy asarlarda uning hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar uchraydi, bayozlarga Adoning asarlari kiritilgan. Shuningdek, Ado «Mohlaroyim», «Jinlar bazmi» kabi badiiy asarlarga epizodik obraz (tarixiy shaxs) sifatida kiritilgan. Keltirilgan manbalardagi ma'lumotlar Sul-tonxon to'ra Adoning hayoti va ijodini o'rganishdagi ilk qadam hisoblanadi, qolaversa, uni o'zbek adabiyotidagi iste'dodli shoir sifatida tanishtiradi. Qo'qon adabiy muhiti rivojiga Ado nafaqat shoir o'laroq, balki moddiy va ma'naviy ko'maklari bilan ham hissa qo'shgan. Vafoti 1835-36 yillarga to'g'ri keladi. Ijodida g'azal, muxammas, mustazod janrlari yetakchilik qiladi. O'zbek va tojik tillarida devonlari bor. Ado mutasavvuf shoir hamdir. Buni uning Naqshbandiya tariqatidan ekanligi, xususan, tariqat an'alarini davom ettirganligida ham ko'rish mumkin. Umuman, Sul-tonxon to'ra Adoning she'riyati mohiyat e'tibori va obrazlar olami, badiiyat salmog'i, mazmun, g'oya va ruhiy ta'sir kuchi jihatidan tasavvuf ta'limoti bilan teran bog'langan.

Ushbu ishimizda buyuk Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili, tassavvuf shoiri Sul-tonxo'ja Ado merosini o'rganishga e'tibor qaratamiz.

Ado va uning misolida XIX asr adabiyoti namoyandalarining madaniy hayotimizdagi xizmatlarini qadrlash – asarlarini topish, tadqiq va tahlil etish orqali ularni kelajak avlodga adabiy meros qilib qoldirish mas'uliyati biz yoshlarning zimmasidadir.

² Qoshingga teguzmag'il qalamni: G'azallar / Amiriy, T.: «Sharq», 2008. 18-bet.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Sovet adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot tarixi, xususan, uning ijodkorlariga biryoqlama baho berilgan. Turli xil sabablar bilan ba'zi adabiy asarlar o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib shoir Sul-tonxo'ja Adoning qo'lyozma manbalardagi merosini o'rganish **tadqiqot obyekti** etib belgilandi. **Tadqiqot predmeti** esa turli xil janr va yo'nalishlardagi she'rlarini tahlil etishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Ma'lumki, milliy adabiyotimiz tarixida Qo'qoq adabiy muhitini o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lgan mavzulardan biridir. Mazkur davr ijodkorlari tomonidan yaratilgan badiiy asarlar, xususan, Sul-tonxo'ja Adoning adabiy merosini tadqiq etish ushbu magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsad va vazifasidir.

Shuningdek, tadqiqotning maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

– O'zbek adabiyoti tarixida o'z munosib o'rniga ega bo'lgan ijodkor, mumtoz adabiyot an'analarini munosib davom ettirgan shoir Sul-tonxo'ja Adoning mo'tabar xotirasini abadiylashtirish;

– tasavvufiy shoir Sul-tonxo'ja Adoning ibratli hayoti va faoliyati, ijodiy merosini chuqur o'rganish;

– yosh avlodga yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va g'ururni uyg'otishda, ularni Vatan, millat taqdiri uchun faol shaxs qilib o'stirish va tarbiyalashda adabiy-madaniy merosning o'rni beqiyos ekanligini anglatish;

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan tarkib topadi:

– Sul-tonxo'ja Ado ijodining o'rganilishini tahlil etish;

– Adoning qo'lyozma manbalarini topish va ularni tiklash, amaldagi yozuvga tabdil etish;

– Shoir g'azallari (umuman asarlarini) o'z davri ijodkorlarining boshqa asarlari bilan qiyoslash;

– Adabiy merosining keyingi tadqiqotlarda to'laqonli o'rganilishi uchun ilk asoslarni yaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Sul-tonxonto'ra Adoning hayoti va faoliyati, adabiy merosi alohida o'rganilmagan. Shoir haqida ba'zi bir ma'lumotlar sanoqli

maqolalarda uchraydi, xolos. Shu bois magistrlik dissertatsiyasi darajasida tarjimayi holini topish va tiklash, asarlarini tabdil etish, sharhlash adabiyotshunosligimizda yangilikdir.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ma'lumki, sobiq sovet davri adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot tarixi ba'zan tasavvufdan holi tarzda o'rganildi va shunday talqin etildi. Ba'zi ijodkorlarning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi «saroy shoiri», «aristokrat ijodkor», «feodal shaxs» tamg'alari ostida o'rganilmadi yoki noto'g'ri baho berildi. Bunday ijodkorlar, jumladan, Sultonxo'ja Adoning ham yetuk shoir, davlat miqyosida taniqli shaxs bo'lganligini ilk ilmiy xulosalar asosida tahmin qilgan holda, uning adabiy merosi o'rganilishi muhimdir.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Tanlangan mavzuni o'rganish va tarixiy jihatdan yoritilishida Sharq qo'lyozmalari markazi, G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon adabiyot muzeyi, Andijon viloyati adabiyot va san'at muzeyida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma manbalardan, shuningdek, XIX asr Qo'qon adabiy muhiti vakillarining asarlaridan asosiy manba sifatida foydalaniladi. Bulardan tashqari, xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga ham e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyada matnshunoslik va manbashunoslikning yo'nalishlari va uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, Vohid Abdullayev, Aziz Qayumov, Anvar Hojiahmedov kabi olimlarning izlanishlari metodologik asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, mazkur ilmiy ish Qo'qon adabiy muhitini to'laroq tavsif va talqin etish; shoir asarlarini zamondoshlarining boshqa asarlari bilan muqoyasa qilish; adabiyotda an'analar davom ettirilgani va yaratilgan yangiliklarni tahlil etishga imkon beradi. Shoir asarlari hozirgi yozuvda nashr etish va kitobxonlarga taqdim etish xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur dissertatsiya kirish, har biri ikki faslni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan.

Dissertatsiya «Sultonxo‘ja Ado va uning adabiy merosi» deb nomlandi. Kirish qismida mavzuning asoslanishi va dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, ilmiy yangili, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, adabiyotlar sharhi, qo‘llanilgan metodikaning tavsifi, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berildi.

«Qo‘qon adabiy muhitining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni» deb nomlangan birinchi bob «Tarixiy sharoit va mumtoz adabiyot rivoji» hamda «Qo‘qon adabiy muhitida g‘azal janri» nomlarida ikki faslga ajratildi. Mazkur bobda Qo‘qon adabiy muhitining ravnaq topishiga sabab bo‘lgan omillar haqida, g‘azal janrining ushbu adabiy muhitda rivojlanishi xususida so‘z yuritildi.

2-bob «Sultonxo‘ja Adoning hayoti va poetik merosi» nomi ostiga olingan bo‘lib, «Adoning shaxsiyati. Turli bayozlarda uning ijodi bilan bog‘liq ma‘lumotlar haqida» faslida shoirning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar, manbalarda u bilan bog‘liq bo‘lgan qaydlar tahlil etildi. «Adoning badiiy asarlarda tarixiy obraz sifatidagi ishtiroki» faslida esa badiiy asarlarda uning nomi epizodik holda uchrashi, kitoblar mualliflari tomonidan shoirga e‘tibor qaratilganligi xususida fikrlar bildirildi.

«Sultonxo‘ja ado ijodida mumtoz adabiyot an‘analarining davom ettirilishi» nomli 3-bobda Ado g‘azallarining badiiy xususiyatlari, ularning o‘ziga xosligi, badiiy san‘atlardan keng foydalanganligi tadqiq etildi (1-fasl). Ado ijodida ruboiy-mustazodlarning o‘rni, ularning yaratilishi va ko‘lami adabiyot tarixidagi yangi voqealardan ekanligi haqida fikrlar bayon qilindi (2-fasl).

Izlanish so‘ngida asosiy boblarda keltirilgan masalalarga xulosalar chiqarilgan. Xulosada tadqiqot yuzasidan fikrlar umumlashtirildi, mavzuga oid nazariy masalalarning yechilishi va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berildi.

I BOB. QO‘QON ADABIY MUHITINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

1-fasl. Tarixiy sharoit va mumtoz adabiyot rivoji

XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi hududiy jihatdan O‘rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo‘qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo‘lgan. Xonlik hududi shimolda uchala **qozoq juzlarini** batamom o‘ziga bo‘ysundirib Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non singari tog‘li hududlarni o‘z ichiga olar edi. Bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo‘lar, ular qo‘ldan qo‘lga o‘tib turardi. Qo‘qon xonligi hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o‘laroq sersuv daryolari, so‘lim vodiylari, serhosil yerlari ko‘p edi. Xonlikning markazi Qo‘qon, Marg‘ilon, O‘zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg‘ona vodiysi bo‘lgan. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyo ota, Pishtak, Oqmasjid kabi yirik shaharlar ham Qo‘qon xonligi tasarrufida edi. Qo‘qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo‘lib, taxminan, 3 mln. kishi bo‘lib, xonlikning poytaxti Qo‘qonda sakson ming, Toshkent shahrida oltmish ming kishi yashardi.

Qo‘qon xonligi aholisining ko‘pchilik qismini o‘zbeklar tashkil etgan. Shuningdek, xonlik aholisi tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqolpoqlardan iborat bo‘lgan. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatar millati vakillari yashar edi.

Minglar urug‘idan bo‘lgan yirik zodagon Shohruxbiy chodak xo‘jalari yordamida Farg‘ona vodiysida Buxoro amirligidan mustaqil bo‘lgan mavqeyini egallab, 1709-yilda Qo‘qon xonligiga asos soladi.³

Tarixchi H.Bobobekov ham boshqa ko‘plab musulmon va rus tarixchilari kabi Qo‘qon xonlari sulolasini Oltin Beshik bilan u orqali Bobur bilan bog‘laydi.

Keling, shu o‘rinda butun e‘tiborimizni Oltin Beshik afsonasiga qaratsak: Yangi tashkil topgan Qo‘qon davlati hukmdorlari o‘zbeklar shajaralarini ota-

³ R.Shamsuddinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., “Sharq”, 2010, 98-bet.

bobolari bilan jang-u jadalda olishib, omadi yurishmay, Vatandan bosh olib ketgan ammo qalami va jasorati tufayli nomini qoldirtgan Bobur Mirzo bilan bog'lashga urinib g'aroyib afsonalar to'qidilar. Mana shunday hikoyalardan biri qator tarixiy bitiklarda qayd etilgan «Oltin beshik» afsonasidir. Biz ushbu afsonani atoqli tarixchimiz Is'hoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibratning «Farg'ona tarixi» asari asosida hikoya qilib beramiz⁴.

Ho'qand shahri Farg'ona iqlimida bo'lmagan. Uning o'rnida tevarakda Targ'ova, Chonkat va Saroy degan qishloqlar bo'lgan ekan.

Mana shu qishloqlarning birida, aniqrog'i Targ'ovada bir kishi bo'lib, u bu qishloqlar xalqi xonzodasi bo'lmasa, itoat qilmasligini bilib bir tadbir ishlatgan ekan.

U Andijon xonlaridan Bobur ibn Umarshayxning shu qishloqlarga yaqin joydan qochib o'tganini bilgani uchun o'zining emizikli o'g'liga juda qimmatbaho liboslar kiydirib, oltin beshik yasatib, beshikni noyob kimxob-u atlaslarga o'rab, Bobur Mirzo o'tib ketgan yo'l chetida yashirib qo'ygan ekan. Begona odamlar olib ketmasligi uchun bir necha xizmatkorini soqchi ham qilib qo'yibdi.

Bir necha kundan so'ng uch qishloqdan suv ochmoq uchun chiqqan odamlar mana shu atayin qoldirilgan bola yotgan beshikka duch kelib qolibdilar. Uch qishloq ahli bola ustida talashib qolibdilar. Oxiri ichlaridan bir kishi chiqib bu talashni chek tashlash yo'li bilan hal qilishni taklif qilibdi. Hamma rozi bo'libdi, chek tushishiga qarab oltin beshik chonkatliklarga, bola esa targ'ovulliklarga nasib qilibdi. Bolani tarbiyalariga olgan targ'ovulliklar unga Oltin Beshik deb ism berishibdi.

Ibrat ushbu asarida yana quyidagilarni bayon qiladi. «Bu Oltin Beshikni(ng) xalqqa xonzoda ekanligini ravshan qilmoqda necha ilova so'zlar qo'shilib bolani(ng) boshida bulut soya qilgan ekan, kiyik emizib turgan ekan va qush soya solgan ekan, deb xalqning qulog'iga o'rnatib to ungacha yigit bo'lib, hurmati va ruxsori ziyoda bo'lib xushaxloq va xushmuruvvat bo'lsa ham Targ'ova qishlog'idan bo'lak xalq anqiyot (itoat qilmay) har bir jamoada bir biy bo'lib kelsa

⁴ Is'hoqxon To'ra Ibrat. «Farg'ona tarixi» T., «Ma'naviyat», 2005, 28-bet.

ham Oltin Beshikning biyiligi shuhratliroq bo‘lib, mundin olti avlod bir suratda o‘tib, yettinchi avlodga kelganda bul kishi xoni Hoqqand bo‘lub ... nihoyatda so‘zi nufuzli bo‘lib xon ismini rivojlantirib Shohruhxon deb shuxrat topgan...⁵

Bu g‘aroyib afsona bejiz yaratilmagan. Yillar o‘tib olis Hind tuprog‘idan Bobur Mirzoning sog‘inchli g‘azallari tog‘- u sahrolari oshib kelib Farg‘ona, qolaversa, butun Movarounnahr ahli dilini zabt etadi. Xalq dilidagi mana shu o‘chmas mehrni sezib-bilib yurgan hukmdorlar o‘z nasl-nasablari vatangado podshoh nomi bilan bog‘lab, shu mehr tufayli xalqning o‘zi ham g‘aroyib afsonalar to‘qiydi.

Farg‘ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri Qo‘qon to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar X asrga to‘g‘ri keladi. Uni XIII asrda mo‘g‘ullar xonavayron qilgan. Hozirgi shahar 1732-yilda qurilgan, fusunkor Farg‘ona vodiysiga kiraverishda qulay joyda bo‘lganidan tezda qaytadan tiklanadi. Va xonlik poytaxti bo‘lib qoladi⁶.

Qo‘qon xonligi Markaziy Osiyodagi davlat bo‘lib, 1709-1876 yillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xonlik hududi ma‘lumotga qaraganda asosan hozirgi Farg‘ona, Namangan Andijon, Toshkent, Xo‘jand viloyatlari, Qirg‘iziston Respublikasi va janubiy Qozog‘iston sarhadlarini o‘z ichiga olgan. Orenburg va Omsk shaharlari Rossiya imperiyasining xonlik bilan chegaradosh viloyat markazlari hisoblangan.

Xonlikning vujudga kelishi to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, XVI asrda Markaziy Osiyoda tinimsiz o‘zaro feodal janjal va urushlar natijasida ikkita mustaqil musulmon davlati: Buxoro va Xiva xonliklari paydo bo‘lgan. Ular ham bir-biri bilan tinimsiz janglar qilib turishdi. Bu janglar natijasida Buxoro xonligi kuchsizlanib, Buxoro hukmdori Abdulazizxon taxtdan voz kechib Makkaga ketadi. 1680-yil Buxoro taxtiga Subhonqulixon o‘tirib o‘z davlatini mustahkamlamoqchi bo‘ldi. Uning hokimlik davrida ham o‘zaro urushlar davom etdi. Xalq qashshoqlashdi. Ochlik avj oldi.

⁵ Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. Farg‘ona tarixi. T., “Ma‘naviyat”, 2005, 91-92 bet.

⁶ G. Xolliyev, X. G‘ulomov. O‘zbekiston tarixi. T., “Universitet”. 1997, 24-bet.

1702-yil Subhonqulixon o'ldi. Taxtga esa uning o'g'li Ubaydulloxon o'tirdi. Uning hukmronlik davrida ashtarxoniylar hukmronligi inqirozining eng so'nggi cho'qqisiga chiqqan edi. Xon darvishlarning yer egaligini cheklashga harakat qiladi. Va nufuzli **jo'ybor xo'jalari** bilan to'qnashadi. Chunki Ubaydulloxonga ular soliq ham solmoqchi bo'lgandilar. Oqibatda, u darvishlar jamoasining madadkorligidan o'zini mahrum qilib qo'ydi. 1709-yili Farg'ona vodiysida chodak xo'jalari qo'zg'alon ko'tarib Shohruhbiyni xon deb e'lon qildilar va mustaqil davlat tuzdilar.

Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad – Qo'qon xonligiga asos solgan ming qabilasining boshlig'i. U taxminan 1669 – 1670-yillarda tavallud topgan. Ming urug'i XVIII asrning boshlarida siyosiy hukumatni xo'jagan sulolasining qo'lidan kuch bilan tortib olgan edi.⁷

Xo'jalar yoki xo'jagan sulolasi ruhoniy nasab sharqiy Turkistonning hokimlari bo'lgan. Sulolaning asoschisi Maxdumi A'zamxo'ja Ahmad ibn Sayid Jaloliddin bo'lib, u «Xo'jagon» tariqatiga mansub. Bu xo'jalar sharqiy va g'arbiy Turkistonda hukm surgan chig'atoy hokimlari davrida katta mansab va vazifalarga ega bo'lib iqtisodiy-siyosiy kuchlarga sohib bo'ladilar.

Ushbu xo'jalar Oqxo'jalar va Qoraxo'jalarga bo'lingan. Qoraxo'jlardan bo'lmish Offoqxo'ja Sin hukumatini tan olgan. Maxdumi A'zamning o'g'li Muhammadamin Oqxo'jalarga mansub bo'lib, Sin hukumatini tan olmagan. Uning avlodlari Xitoy sharqiy Turkistoni bostirib kirganda G'arbiy Turkiston, yani Qo'qon xonligiga kirib qoladi.

Ma'lumki, xo'jagan jamoasi Maxdumi A'zam Ahmad ibn Jaloliddin xo'jagan Kosoniy avlodlaridan bo'lib ularning hukmronligi XVII asrda sharqiy Turkistonga ham tarqalgan edi.

Shohruhbiy ham xo'jalar bilan ittifoq tuzib, hukmronligini mustahkamlash uchun chodak xo'jalaridan birining qiziga uylanadi. 1709-yili urug' zodagonlari hamda xo'jalari roziligi bilan Shohruhbiy xonlik taxtiga ko'tariladi. Shohruhbiy

⁷ Mirzo Olim. Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. T., "Yangi asr avlodi", 2008. 6-bet.

davrida O'sh, O'zgan, Xo'jand hali mustaqil bo'lib Qo'qon davlatining shimoliy chegarasi Namanganning Shohidonigacha cho'ziladi.⁸

Shohruhbiy 1721-yili vafot etdi. Undan uchta o'g'il – Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy va Shodibiy qoldi. Shohruhbiy vafotidan keyin uning katta o'g'li Abdurahimbiy taxtga o'tiradi. Uning hukmdorlik davrida dastlab Andijon va Xo'jand, keyinchalik Samarqand va Kattaqo'rg'on zabt etildi. So'ngra Shahrisabzga ham tahdid bo'ldi. Shahrisabz hokimi Abdurahimbiy bilan bitim tuzib unga Oychuchuk ismli qizini nikohlab berdi. Xo'jandga qaytgan Abdurahimbiy qattiq betob bo'lib 33 yoshida vafot etadi. Undan o'g'li Erdonbek va uch qiz qoldi. Taxtga uning ukasi Abdulkarimbiy o'tirdi.⁹

Muhammad Abdulkarimbiy hijriy 1115-, milodiy 1703-yilda tavallud topgan. U xon bo'lishidan oldin valiahd sifatida Namanganda hokim edi. Abdulkarimbiy asosiy e'tiborini davlatni mudofaa qilish ishlariga qaratadi. Uning zamonida Qo'qon shahri atrofi qo'rg'on bilan o'raladi, Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek darvozalari quriladi. 1741 – 1745-yillarda Farg'ona **jung'orlar** hujumiga duch keladi. Abdulkarimbiy qipchoq-qirg'izlar hamda O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamida ular bilan urushlar olib boradi. Shu vaqtda Abdulkarimbiy ham To'raqo'rg'on va Samarqandga Abulfayzxon iltimosiga binoan yurishlar qiladi. 1745-yili Miyonko'lda xitoy qipchoqlari Ibodullohbiy rahbarligida bosh ko'taradi. XIX asrning boshlarida Xitoy hukumati tazyiqi ostida sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysiga qalmoqlar, uyg'urlar, qirg'izlar, qoraqalpoq va qozoq qipchoqlari ko'chib kelishadi.

Farg'ona vodiysi XVIII asrning o'rtasida ko'plab xalq va jamoalar uchun Vatan bo'ladi.

Abdulkarimbiy 40 yoshda vafot etdi. Taxtga uning o'g'li o'tirdi. Ammo olti oydan keyin u taxtdan tushirilib, Marg'ilonga hokim qilib yuboriladi. Taxtga esa Erdona o'tqaziladi. U ham tez orada taxtdan ag'dariladi, uning o'rnini Bobobek egallaydi.

⁸ Mirzo Olim, Maxdum Xoji. Tarixi Turkiston. T. "Yangi asr avlodi", 2008. 6-b.

⁹ G. Xolliyev, X.G'ulomov. O'zbekiston tarixi. T., "Universitet", 1997, 25-bet.

U bir yil hokimlik qiladi, Beshariqda o'ldiriladi va taxtga yana Erdona o'tkaziladi. Erdona 14 yil (ayrim manbalarda 12 yil) hokimlik qilib vafot etdi.

Shu o'rinda bir narsani takidlash joizki, Qo'qon xonligida yuqori hukmron tabaqaning ijtimoiy va etnik jihatdan xilma-xil bo'lishligi turli guruhlar o'rtasida muttasil davom etadigan hokimiyat talashib kurashining asosiy sababidir. Xonlikda hukmronlik qilgan xonlardan ko'pi saroy to'ntarilishi oqibatida o'ldirilganlar o'nlab shahzodalar amaldor va sarkardalar saroy to'ntarishining qurboni bo'lib qatl etilganlar. Bunday qarama-qarshiliklar va o'zaro kurashlar Qo'qon xonligini oxir oqibatda inqirozga uchrab chor Rossiyani mustamlakasiga aylanishiga sabab bo'lgan bosh omillardandir.¹⁰

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Shohruhbiyning ikkinchi o'g'li Abdulkarimbiy markaziy davlatni mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlar o'zboshimchaligiga chek qo'yishga qaratilgan siyosat olib boradi. Shundan keyin to 1770-yilga qadar navbat bilan Abdurahmon Erdonaxon, Bobobek va Sulaymonbek Qo'qon xonligi taxtini boshqaradilar. Faqat Norbo'tabiy (1762-1798) yurgizgan qattiqqo'l siyosat tufayli ma'lum darajada bek va biylarning o'zboshimchaligiga chek qo'yiladi. Chust, Namangan va Xo'jand beklari qarshiligi qattiqqo'llik bilan bostiriladi.

Norbo'tabek davrida ko'pgina tarixchilar o'zlarining qo'lyozma asarlarida xalq farovon yashaganligi, narx-navo arzon bo'lganligini ta'kidlaydilar. Biroq No'rtabiy vafot etgach zodogonlarning hokimiyat va davlat talash kurashlari yangi kuch bilan avj oladi. Qo'qon taxtini egallagan uning o'g'li Olimxon (1798-1810) O'zboshimcha beklarga nisbatan qattiqqo'l siyosat yurgizish va ularning qarshiligi kuch bilan bostirishga majbur bo'ladi.

Olimxon Qo'qon xonlari orasida birinchi bo'lib xonlikning unvonini qabul qiladi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ladi. U harbiy islohatlar o'tkazdi va o'z davlatining qudratini oshiradi. Norbo'tabiy va Olimxon davrida (1798-1810 milodiy yillar) Qo'qon

¹⁰ R.Shamsuddinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., "Sharq", 2010, 100-b.

xonligining birlashish jarayoni oxiriga yetadi. Olimxon davrida Toshkent va Chimkent xonlik hududiga qo'shiladi.

Uning davrida xonlikning xo'jalik va madaniy hayoti rivojlana boshladi va Qo'qon Farg'onaning madaniy va iqtisodiy markaziga aylanadi. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi qo'shni davlatlar bilan aloqalar o'rnatib, ularga o'z elchilarini ham yuboradi. Qo'qonning Xiva, Sharqiy Turkiston, Buxoroga yuborgan elchilari haqida ma'lumotlar bor.

1805-yili yetti yillik harakatlardan so'ng Olimxon Xo'jandni, 1806-yili esa O'ratepani zabt qilib, itoatiga kirgazdi. Lekin ko'p o'tmay O'ratepa mustaqillikni qo'lga kiritib, Maxmudxo'ja hokim Olim Buxoro qo'shinidan mag'lub bo'lib, siyosatini o'zgartiradi. Endi u Toshkentga yurish qilishga qaror qilib 1809-yili bu viloyatni ishg'ol etadi.

Bu yerda turib Olimxon qishning o'rtalarida qo'shinini Bayram va Chimkentga chekingan toshkentliklar qo'shiniga qarshi yubordi. Ob-havoning qiyinchiliklari qishning sovuq kelgani hamda Olimxon qahr-u g'azabidan to'ygan qo'shin boshliqlari va xon dushmanlari uning ukasi Umarxon tarafiga o'tadi. Umarxon ham bu kishilarni qo'llab turadi, e'tiroz bildirmaydi Umarxon qo'zg'olon ko'targan qo'shin bilan Qo'qonga qaytadi va xonlik taxtiga ko'tariladi. Olimxon Toshkentda qolgan yaqinlari bilan Qo'qonga qaytayotganda Umarxon va Toshkent zodagonlari odamlari tomonidan Saroy degan mavzeda o'ldiriladi.

Amir Temur va uning o'g'li Mironshohdan boshlangan sulola, Qo'qon xoni Xudoyorxongacha davom etib kelgan.

XVI – XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarining xalq ta'limi, fan va ma'daniyati haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallar edi. O'z boshlang'ich nuqtasini X – XII asrlardan e'tiboran olgan so'fiylik tariqati naqshbandiylik g'oyasi bilan uyg'unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho'qqiga ko'tariladi, to XX asrdagi siyosiy to'lqin va lahzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy rol

o‘ynaydi.¹¹ XVI–XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o‘xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o‘xshashdirlar.

Birinchi, O‘rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o‘rinlarda turgan bo‘lsa, XVI-XVII asrlardan boshlab bu hududda tushkunlik boshlanadi. Ikkinchi, har uchala davlat birliklari o‘zlari alohida mustaqil faoliyat ko‘rsatsalar-da, davlat idora ishlari o‘zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo‘qonda fors-o‘zbek, Xivada o‘zbek tili rasman davlat tili hisoblanardi.

Uchinchi, an’anaga ko‘ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro‘si saqlanib qolgandi.

Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo‘lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud edi.

Madrasalar musulmonlar uchun oliy o‘quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o‘rtasida esa Xonzoda va zodagonlarning bolalarini o‘qitish uchun maxsus maktab bor edi.

Odatda maktablarda asosan o‘qish va yozish, arifmetika va adabiyot o‘qitilar edi. Maktablar qizlar uchun alohida, o‘g‘il bolalar uchun alohida bo‘lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshod Qo‘qonda maktab ochgan. U o‘zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: «Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste’dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yilda o‘rtacha 20 tadan 30 tagacha o‘quvchilarim bo‘lib, sakkiz yuz to‘qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi, she’riyatga qobiliyatli bo‘lib, shoira va o‘z davrining aqlli va dono odamlari edi.¹²

Qo‘qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan ko‘proq maktablar bo‘lgan. Shuning uchun savodlilar ko‘p bo‘lib, o‘qish va yozishga usta bo‘lganlar. 1841-

¹¹ R.Shamsuddinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev, Vatan tarixi. T. Sharq 2010 119-bet

¹² Мухтогов А. Дилшод и его место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX кагом XX в.в. 301 стр

yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o'qigan. Bu madrasani ikki shaxs: Eshon Mavloniy va Maxdumi Buxoriy boshqargan. Bular hurmatli insonlar bo'lib katta ilmga ega edilar.

Har bir maktabdor domlaning ham o'zicha o'qitish usullar bo'lgan. Ularning ba'zilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda kichik yoshdagi o'quvchilarga husnixat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o'nlab hayotiy kitoblarni ham o'qishni o'rgatar edi.

O'zbekiston hududidagi xonliklar va amirliklar davrida fan, adabiyot, san'at birmuncha rivojlangan. Ko'proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan.¹³ Tarixshunoslik ham ancha rivojlangan. Garchi bu davrdagi tarixchi olimlar yozgan tarix kitoblar ko'pincha o'sha xonlik va amirliklardagi siyosiy voqealar solnomasiga aylanib qolgan bo'lsa ham, biz uchun bugungi kunda o'sha davrni yoritishda muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyot sohasida juda ko'plab shoir va shoirlar ijod etadilar. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi «Amiriy» taxallusi bilan o'zbek tilida go'zal g'azallar yozgan.

Ko'rilayotgan davrda fan va madaniyat har xolda bir yerda to'xtab qolmagan. Yuqorida bizlar takidlagan qurilishlar ayniqsa, madrasalar bunyodi shunga ishoradir. Sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XVIII-XIX asrlarda o'zbek xalqining bu sohalaridagi tarixini bo'yab ko'rsatishga intilib, o'lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining «O'zbekiston uchun progressiv ahamiyatini» isbotlashga atayin harakat qilgan.¹⁴

O'tgan sulolalar kabi mang'itlar, qo'ng'irotlar minglardan chiqqan namoyandalar ham o'z davri va doiralarning o'qimishli shaxslari bo'lganlar. Masalan, Qo'qon xoni Umarning «Amiriy», Malika Mohlaroyimning «Nodira», «Komila», «Maknuna», Xiva xoni Muxammad Raximxon II «Feruz», uning akasi Otajon To'ra Murod «Murodiy» taxallusida she'r bitganlarini, Abdulg'oziy

¹³ Sh. Karimov. O'zbekiston tarixi va madaniyati. T. "O'qituvchi" 1992, 119-bet.

¹⁴ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., "Sharq", 2000, 800-b

Bahodirxonning «Shajarayi Turk», «Shajarayi Tarokima» kabi o‘zbek tilida yozgan asarlarini shu o‘rinda eslash joiz.

Fazliy, Mushrif, G‘oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg‘ona vodiysida yashab ijod qilganlar.

Shuningdek, «Afzal at-tavorix», «Tarixi Umarxon», «Risolayi Askariya», «Muntaxab at-tavorix», «Tarixi Shohruhiy», «Tarixi Jahonamoy», «Xulosat al-axbor», «Tasnifi g‘arib», «Tarixi jadidayi Tashkand» kabi boshqa ko‘plab tarixiy asarlar ham xuddi shu davrda Qo‘qon xonligi doirasida yozilgan.

O‘zbek milliy madaniyati markazlaridan biri, shubhasiz, bu Qo‘qon shahri edi. Bu yerda XVIII – XIX asrning birinchi yarmida ilm-ma‘rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ va mutafakir shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo‘qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo‘ldoshi shoira Nodiraning sa‘y-harakati tufayli Qo‘qon shahri ilm-ma‘rifat adabiy muhiti paydo bo‘ladi.

Bu davrda adabiyot gullab-yashnagan, tez sut‘atlarda rivojlangan. Va haqli ravishda adabiyotimiz tarixida «Qo‘qon adabiy muhiti» degan yirik salmoqli adabiy maktab qoldirgan. Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek adabiyotiga yorqin iste‘dodlarni yetishtirib bergan. Ana shunday ijodkorlardan biri **Mohlaroyim Nodiradir**.

Nodira shoiraning taxallusi, u «tengi yo‘q», «yakka-yu yagona» ma‘nosini anglatadi. Nodira faqat o‘zbek tilidagina emas, balki fors-tojik tilida ham «Maknuna», «Komila» taxallusida she‘rlar g‘azallar bitgan.

Nodiraning eng oliyjanob va e‘tiborga loyiq tadbirlaridan shu bo‘ldiki, u o‘z atrofiga zamonasining qobiliyatli va ijod egalari bo‘lmish shoirlarni to‘pladi va ularga homiylik qildi. Uvaysiy, Mahzuna, Mushtariy va boshqalar uning eng yaqin maslakdosh va maslahatgo‘ylari edilar.¹⁵

Nodira insoniylikni, ezgulikni ulug‘ladi, hayotbaxsh orzu-umidlarini tarannum etadi. Undan bizga ulkan lirik meros qoldi. 1842-yilda Nodira hayotida katta fojia yuz beradi. Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qonni bosib oladi va

¹⁵ Sh. Karimov. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. T. “O‘qituvchi” 1992, 119-b

Nodirabegimni shariatni buzganlikda ayblab uni qatl qildiradi. Nodira jaholatning qurboni bo‘ladi.

O‘zbek mumtoz so‘z san’ati tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining vujudga kelishi hamda rivoj topishida **Amir Umarxonning** ham xizmati katta bo‘lgan. U Amiriy taxallusi bilan o‘zbek va fors-tojik tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan zullisonayn shoirdir.

Mumtoz adabiy an’anada bo‘lgani kabi uning ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq bir-birini to‘ldiradi, biri ikkinchisiga vosita sifatida qaraladi. Ishqni hayotning ma’nosi, ijodning ilhomchisi hisoblagan shoir ko‘plab g‘azallarida o‘zini «ishq mulkining amiri», «mulki dil amiri», «ko‘ngil taxti amiri», «junun shahri amiri», «iqlimi vafo amiri» sifatlari bilan lutf etadi.

Amiriy devonidan joy olgan lirik turning qator janrlariga oid namunalar obraz va obrazlilik bilan ziynatlangan. Ularda insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etadi, shoir ularda asrlar davomida shakllanib kelgan an’anaviy obraz va badiiy tasvir vositalariga qaysidir jihatdan yangicha ma’no yuklaydi.

Gulxaniy (taxallusi; asl ismi Muhammad Sharif) (taxminan 18-asrning oxiri – Qo‘qon – 19-asrning 20-yillari) – o‘zbek mumtoz shoiri, masalnavis. Hayoti va ijodi haqida «Majmuayi shoiron» (Fazliy Namangoniy), «Tuhfat ul-ahbob» (Qori Rahmatulloh Vozeh), «Sabot ul-bashar va tarixi muhojiron» (Dilshod Otin) kabi asarlarda ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Fazliy Gulxaniyning «Ko‘histon mulkidan» ekanligini ta’kidlasa, Vozeh uni namanganlik, deydi. Gulxaniy Namangan va Qo‘qonda yashagan, oz vaqt hammomda o‘t yoquvchi – go‘lax vazifasida ishlagan (taxallusi shundan). Qo‘qon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmatda bo‘lgan (1801 – 10). Mustaqil mutolaa yo‘li bilan mumtoz adabiyotni o‘rgangan. Olimxon vafotidan (1811) so‘ng taxtga o‘tirgan Amir Umarxon (Amiriy) Gulxaniyni saroy shoirlari davrasiga jalb etgan. Shoir xonni maqtagan, uning g‘azallariga naziralar bitgan. Umarxon vafotidan so‘ng vataniga qaytib, ko‘proq oddiy insonlarga manzur bo‘luvchi she‘rlar yoza boshladi. O‘tli hajvlar yaratdi.

Gulxaniy o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Bizgacha bir necha g'azali, hajviyalari hamda «Zarbulmasal» («Yapaloqqush» hikoyasi) nasriy asari yetib kelgan. G'azallarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, bahor, real hayotiy manzaralar o'z ifodasini topgan («Barmog'im», «Ey to'ti», «Lola ko'ksidek bag'rim...»). «Bideh» (bergil, ber menga) radifli g'azalida shoir navkarlik davridagi hayotini tasvirlagan. Bu g'azalga chuqurroq nazar tashlansa, muallif katta ijtimoiy masala – o'z davrining harbiy tartibi, rasm-rusumlari haqida fikr yuritganligini kuzatish mumkin. G'azalida lirik qahramonning obrazi umumlashma obraz darajasiga ko'tarilgan. Gulxaniy o'zining zo'r iste'dodi, tajribasi, turmushga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalqchil ijodkor sifatida ko'ringan. Shoirning bizga ma'lum g'azallarining ayrimlari Amiriy she'rlariga nazira tarzida yaratilgan bo'lib, ular oddiy taqlidchilik doirasida qolmay, barkamol mustaqil badiiy asar darajasiga ko'tarilgan. Gulxaniyning she'riy ijodi, garchand, hajman katta bo'lmasa-da, 19-asr o'zbek milliy adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Shoir, adabiyotshunos **Fazliy** ham shu davrda yashagan va barakali ijod qilgan. U 19-asr boshlarida To'raqo'rg'on va Namanganda turli mansablarda ishlagan. Umarxon hukmronligi yillari (1810–22) Qo'qonga kelgan. She'riy iste'dodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo'lgan. Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, hukmronligi davridagi voqealarni «Umarnoma» dostonida tasvirlagan. Xon topshirig'iga ko'ra, Fazliy «Majmuayi shoiron» («Shoirlar majmuasi», 1821) tazkirasini tuzgan. O'zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she'riy yo'l bilan yaratilgan mazkur tazkirada 19-asr boshlari Qo'qon adabiy muhitining 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma'lumotlar va asarlaridan namunalar mavjud. Shu jumladan, unda Fazliyning qasida va g'azallari, shoira Mahzuna bilan mushoirasi ham bor. Fazliyning «Devon» tuzgani ma'lum, ammo u topilmagan. Uning o'zbek va tojik tillarida yozilgan g'azal, masnaviy, muxammas, ruboiy va tuyuqlari turli majmua va bayozlarda uchraydi.

Fazliyning «Majmuayi shoiron» tazkisasi 19-asr va 20-asr boshlarida qo'lyozma va toshbosma nusxalarda keng tarqalgan, asar adabiyot ahli orasida katta shuhrat topgan. Uning mukammal qo'lyozma nusxalari Sharq qo'lyozmalari

markazida saqlanadi (7510, 9914 va b.). Fazliy Umarxon vafotidan soʻng (1822), Namanganga ketgan va oʻsha yerda vafot etgan.

Uvaysiy ham mazkur davrda yashab ijod etgan oʻzbek shoirlaridan. Uvaysiy uning taxallusidir. Asl ismi Jahon otin. 1779-yilda Margʻilonda tavallud topgan. Uvaysiy oilada xat-savodini chiqarib, avval xalfa, soʻngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan sheʼriyat ilmini oʻrgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. U, ayniqsa, aruzni, muammo (sheʼrda fikrni yashirib ifodalash) sanʼatini mukammal egallagan. Qoʻqon adabiy muhiti bilan yaqinlashib, mushoirlarda qatnashgan. Saroyda Nodira va boshqa xotin-qizlarga sheʼriyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. Dilshod otinning maʼlumot berishicha, Uvaysiy Nodira bilan Konibodom, Xoʻjand, Oʻratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarga borgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullaxon Qoʻqonni egallagach, Margʻilonga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Uvaysiy 4 devon tuzganligi maʼlum. Lekin bu devonlarning asl qoʻlyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz oʻzbek sheʼriyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqalarning asarlariga muxammaslar bogʻlagan.

Bu davrda ijod qilgan shoirlardan yana biri **Hoziqdir**. Uning asl ism-sharifi Junaydullo Islomshayx oʻgʻli. 1793–1800 yillarda Buxoroga kelgan va madrasada tahsil koʻrgan, tib ilmini oʻrgangan, sheʼrlar mashq qilgan. «Hoziq» taxallusini ham shu yerda olgan. Madrasani tugatgach, shu madrasada imomlik qilgan va Amir Haydar saroyiga yaqinlashgan. 1818-yil saroy aʼyonlari bilan kelisha olmay, Qoʻqonga ketgan. Umarxon uni yaxshi kutib olgan. Hoziq Buxoroda boshlagan «Yusuf va Zulayho» dostonini tugallab, xonga tortiq qilgan. Bu yerda ham xon atrofidagi saroy ahli bilan kelisha olmay, 1825-yilda Buxoroga qaytgan, soʻng Xorazmga borgan va Munis, Ogahiy boshchiligidagi adabiy guruh taʼsirida boʻlgan. Munis vafot etgach, Olloqulixon (1825–42) topshirigʻi bilan «Ravzat us-safo» asarining 1-jildi tarjimasini nihoyasiga yetkazgan. Soʻng yana Qoʻqonga qaytgan. Nasrullaxon 1842-yil Qoʻqonni bosib olgach, Hoziq uning taʼqibidan Shahrisabzga qochgan va u yerda amirning yollangan odamlari tomonidan oʻldirilgan.

Hoziq o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Zebuniso she‘rlariga muxammaslar bog‘lagan. Lirikasi rang-barang, unda zamon norasoliklari, johil va odil hukmdorlar haqida mulohazalar bildirilgan, sevgi va muhabbat tarannum etilgan. She‘rlarida zamonasidagi hukmdorlarni adolatga undagan. «Yusuf va Zulayho» dostonida o‘zining ijtimoiy-falsafiy mulohazalarini, zamon va hukmdor haqidagi fikrlarini bayon etgan. «Voqeoti islomiy» va «Avlodlar shajarasi» risolalari tarixiy-biografik xarakterda. Mahmud Chag‘miniy (11-asr)ning tibbiyotga oid arab tilida yozgan «Qonuncha» asariga fors tilida «Tahqiq ul-qavoid» («Tabobat asarlarini o‘rganish», 1822) nomli sharh yozgan.

Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakillaridan yana biri **Mahzun**adir. Asl ism-sharifi Mehribon mulla Boshmon qizi bo‘lib, taxminan, 1811-yil Qo‘qonda tavallud topgan. Qo‘qonning Qatag‘on daha Mulla Boshmon mahallasidan bo‘lib, otasi mahalla masjidi imomi Mulla Boshmon Oxunddir. Ota-onasi qo‘lida savod chiqargan, arab, fors tillarini mukammal o‘rgangan. Navoiy, Jomiy, Fuzuliy va boshqa ijodidan ta’sirlangan, o‘zbek va tojik tillarida she‘rlar yozgan. Hayoti va ijodi haqida «Majmuayi shoiron» (Fazliy), «Tazkirat ush-shuaro» (Hashmat) tazkiralarda ayrim ma’lumotlar uchraydi. Fazliy tazkirasida Mahzunaning oqila va hozirjavobligi, Qo‘qonda mashhur shoira ekanligi aytilgan.

Hashmat, Pisandiy, tarixchi Ahmadjon to‘ralar ham Mahzunaning barkamol shoiraligini xabar qiladilar. Uning she‘riy qobiliyati, shaxsiy fazilatlari haqida eng ko‘p va iliq fikrlar yozib qoldirgan yagona shoir hozircha Fazliydir. Fazliy: «Garchi ul zaifa bo‘lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir», deydi. Fazliy bilan Mahzunaning mashhur mushoirasi, «Oshiq bo‘lmisham» (o‘zbekcha) muxammasi, «Sahbo» (forscha) g‘azaligina bizgacha yetib kelgan. Devoni saqlanmagan.

Maxmur ham Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalaridan biri. Shoir Mulla Shermuhammad Akmal Ho‘qandiyning o‘g‘li. Qo‘qondagi «Madrasayi Mir»da tahsil olgan. Umarxon qo‘shinida sarbozlik, sipohiylik qilgan. Maxmur yoshligidan she‘riyatga havas qo‘yib, Sa‘diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy merosini o‘rgangan.

Shoirning shaxsiy hayoti juda og‘ir kechgan, bu esa uning ijodida ham yorqin iz qoldirib, ko‘pchilik she‘rlarining mazmun ruhiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Maxmur tabiatan munofiqlik va riyokorlikni qat‘iy qoralovchi, hiyla-nayrang va qing‘ir ishlarni yoqtirmaydigan, ayni zamonda, nozik did va serjahl, o‘z qadr-qimmatini yuqori tutuvchi inson bo‘lgan.

Maxmurning an‘anaviy devon tuzganligi noma‘lum. 1950-yilda Po‘latjon Qayumov va Asqarali Charxiylar izlanishlari tufayli Qo‘qonda Maxmurning o‘zbek va forsiy tillardagi she‘riy majmuasi topilgan. Maxmur asarlarining deyarli hammasi o‘z mazmun va ruhiga ko‘ra, hajviy va tanqidiy yo‘nalishdadir. Mumtoz she‘riyatning g‘azal, masnaviy, muxammas va qasida turlarida yaratilgan bu asarlar milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyotning Maxmur ijodida yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Shoir o‘z davridagi tuzumning ko‘pdan ko‘p illatlarini keskin tanqid ostiga olgan, o‘sha zamondagi adolatsizlik, zo‘ravonlik va huquqsizlikni fosh etgan. Bu tanqid, ko‘pincha, «jafokor falak», «berahm charx» qilmishidan o‘tli shikoyat, achchiq taqdirdan, befayz hayotdan nola-fig‘on tarzida yuzaga kelgan.

Sanab o‘tilgan va nomi zikr etilmagan shoirlar orasida aynan ushbu davrda ijod qilgan, Amir Umarxon saroyida «Malik ush-shuaro» nomini olgan Sultonxo‘ja Ado ham bor. Shoir ijodi sovet davri o‘zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o‘rganilmadi. Ayrim tadqiqotlarda esa biroz e‘tibor qaratildi. Biroq ularning aksar o‘rinlarida Adoga biryoqlama, ya‘ni «feodal-klerikal adabiyot vakili» sifatida qaraldi. Biz ayni shu jihatni e‘tiborga olib, kelgusi satrlarda shoirning hayotini va ijodini manbalarga tayangan holda o‘rganishga, asarlarini xolislik asosida talqin etishga jazm etdik.

2-fasl. Qo‘qon adabiy muhitida g‘azal janri

O‘zbek mumtoz so‘z san‘ati tarixida Qo‘qon adabiy muhitining o‘rni alohida. O‘zbek badiiyati takomilida janrlarning rivojlanish masalasi hamisha ahamiyat berilishi lozim jarayon sifatida e‘tirof etiladi. Ayniqsa, sharq mumtoz poetikasi uchun an‘anaga aylanib qolgan g‘azal janri va uning shakllanishi, takomili Qo‘qon adabiyoti uchun ham xos hodisa.

Barcha davrlarda bo‘lgani kabi Qo‘qon adabiy muhitining taraqqiyoti davrlarida an‘ana va mavzu ko‘lami miqyosi bo‘yicha barcha davr, aniqrog‘i an‘anaviylik ustunlik qilgan davr xarakteri, anglatish usullarini qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz. Sharq uyg‘onish davri va tasavvuf adabiyoti an‘alarini davom ettirish va davr ruhiyati insonlar o‘y-fikrlarini ochishda, ruhiy sezimlarga ta‘sir etishda shakl muhim sanalgan. Va adabiy muhit ijodkorlari g‘azal shaklidan foydalanib, badiiy-estetik qarashlarini ifoda etishgan.

G‘azal (arabcha, ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh etish) – sharq mumtoz she‘riyatida eng ko‘p tarqalgan lirik janr, 3-4 baytdan 19 baytgacha bo‘lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanuvchi she‘r.¹⁶ Qo‘qon adabiy muhitida g‘azal janrining ommalashuvi va rivoj topishida Amir Umarxonning ham xizmati katta bo‘lgan. U Amiriy taxallusi bilan o‘zbek va fors-tojik tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan zullisonayn shoirdir.

Mumtoz adabiy an‘anada bo‘lgani kabi uning ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq bir-birini to‘ldiradi, biri ikkinchisiga vosita sifatida qaraladi. Ishqni hayotning ma‘nosi, ijodning ilhomchisi hisoblagan shoir ko‘plab g‘azallarida o‘zini «ishq mulking amiri», «mulki dil amiri», «ko‘ngil taxti amiri», «junun shahri amiri», «iqlimi vafo amiri» sifatlari bilan lutf etadi.

Amiriy devonidan joy olgan lirik turning g‘azal janriga oid namunalar obraz va obrazlilik bilan ziynatlangan. Ularda insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etadi, shoir ularda asrlar davomida shakllanib kelgan an‘anaviy obraz va badiiy tasvir vositalariga qaysidir jihatdan yangicha ma‘no yuklaydi.

¹⁶ Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug‘ati, T.: Akadernashr, 2010. 385-b.

Xususan, quyidagi gʻazalni koʻzdan kechirganda uning boshqa gʻazallardan zohiran uncha katta farqqa ega emasligini koʻrish mumkin. Ammo, botinan shoir muqoyasa usulini qoʻllash orqali yor jamoli, uning malohatini oʻta serzavq, taʼsirchan baytlar mazmuniga singdiradi:

Menikim mastligʻdin koʻzlaring oʻlturdi, sogʻ oʻlsun,
Koʻzum sarchashmasi ul ikki ohugʻa bulogʻ oʻlsun.

Gʻazal markazida maʼshuqaning koʻzini vasf etish turibdi. Maʼshuqaning koʻzi xumor boʻlmaganida, oshiqning koʻzi buloq boʻlmas edi. Natijada, ikkinchi misradagi «ohu» tashbehi oshiqning koʻz yosh toʻkish holati bilan birikib, maʼshuqa koʻzining goʻzal tasviri berilgan. Mastona koʻzlarning nigohi oshiqni oʻldirganday boʻldi. Baribir, ular sogʻ boʻlsinlar, deydi oshiq. Ikki ohu esa yorning oʻsha ikki koʻzi. Koʻz yoshini tinimsiz toʻkayotgan oshiqning koʻzlari esa oʻsha ikki ohu suv ichadigan buloq kabidir. Shoir bu yerda sarchashma soʻzini juda oʻrinli ishlatgan. Chunki u ham buloq maʼnosini beradi. («Koʻzum sarchashmasi».)

Ikkinchi baytning mazmuni esa bunday: «Shirin labingdan ozgina uyatchanlik bilan kulib qoʻygin. Oʻshanda shakarxand qilganday boʻladi. Undan esa gulgʻuncha bedimogʻ boʻladi (chunki uning oʻsha lab tabassumdagi goʻzalligiga rashki keladi). Shoir labni gʻunchaga oʻxshatish barobarida, tashxis sanʼati asosida, labning shirinligidan xijolat boʻlib, gʻunchaning latif hididan mahrum boʻlganligini mahorat bilan tasvirlaydi:

Tabassum zohir et, shirin labingdin infiol aylab,
Shakarxand aylasun, gulgʻuncha andin bedimogʻ oʻlsun.

Labdan keyin tish tasviri keladi. Bunda yor tishlarining goʻzalligiga urgʻu berish bilan birga, gavhardek tishlarning goʻzalligidan mutaassir boʻlgan oshiqning holati ham koʻrsatiladi:

Koʻzum to koʻrdi gavhardek tishingni laʼli nob ichra,
Ajab ermas sirishkimdinki, durri shabchirogʻ oʻlsun.

Baytda tish qizil laʼl ichidagi gavharga oʻxshatiladi. Uni koʻrgan koʻz yosh toʻkadi. Bu yoshlar shabchirogʻning duri kabidir. Agar «durri shabchirogʻ»

birikmasi ma'shuqa tishining nur sochuvchilik xususiyatiga ishora qilsa, navbatdagi baytda tasvir doirasi yanada kengaytiriladi:

Seni gavhar tishingni vasfini daryog'a arz aylay,
Sadaf oni eshitmoqg'a saropo bir qulog' o'lsun.

Tishni dur (gavhar, inju, marvarid)ga o'xshatish – an'anaviy tashbeh. Lekin sadafga jon ato etish – tashxis san'atidan foydalanib, ma'shuqa go'zalligiga urg'u berish katta mahoratni taqozo etadi. Yuz va gulshan – doimiy hamroh obrazlar. Amiriy g'azalida gul o'zining yor yuzi, chiroyi oldidagi notavonligidan yoqasini chok-chok etib, faryod ko'taradi. Baytning badiiy qurilishidan shoirning tashxis san'atiga nihoyatda e'tibor berayotganligining yana bir isbotini topish mumkin. Yana ham to'g'rirog'i, bu g'azal to'laligicha tashxis san'ati asosiga qurilgan. Chunki baytning ikkinchi misrasida mahbuba yuzidagi xolni ko'rsa, alamdand lolaning ko'ksidagi dog'i ustiga dog' qo'shiladi:

Yuzing gulshanda ochkim, gul yoqasin chok-chok etsun,
Qaro xolingni ko'rsat, lola dog' ustida dog' o'lsun.

Quyidagi bayt ham an'anaviy tasviriy vositalar zamiriga qurilgan. Oshiq endi tashbeh sifatida ishlanuvchi tashqi vositalardan o'z jismi maydonida mavjud ma'shuqaga aloqador vositalar tasviriga o'tadi. Ko'ngulning yor sochiga tarog' bo'lishi – azaliy tashbeh. Lekin, bu o'rinda, Amiriy yanada yangicha yo'l tutadi, bayt mazmuniga xalqona ruh beradi. Mashshota mumtoz adabiyotda anchayin keng qo'llangan obraz. Mashshota – qiz va kelinlarning sochlarini tarab, oro beruvchi, bezantiruvchi pardozchi xotin. Demak, lirik qahramonning parishonligi, shu pardozchi ayol qo'lidan-da rashk qilishi, tabiiy bir vaziyatni yuzaga keltiradikim, natijada, yor sochiga ko'ngulning taroq bo'lishi hayotiy manzarani hosil qiladi:

Parishonholmen mashshota ilgi rashkidin har dam
Ani sochig'a, yo Rab, xasta ko'nglumdan tarog' o'lsun.

Keyingi baytda avvalgi fikr davom ettiriladi. Lirik qahramon ma'shuqa xoliga giriftor bo'libdimi, sochning shu sayd (ovchi – oshiq) uchun tuzoq bo'lishi tasvirga yanada jonlilik baxsh etadi.

Maqta'da bu fikrlar o'z yakunini topadi. Yor gulshani tevaragida maftun-u mahliyo bo'lib uchib yurgan ko'ngul qushlari bu gulshanning yagona, beqiyos gulzoriga shaydo. Bu qushlar – amirmi, podshohmi, bulbulmi, zog'mi – ahamiyatli emas. Muhimi, ma'shuqa tengi yo'q go'zal:

Bu gulshan qushlari gulzori ruxsoringni shaydosi,
Amir-u yo gadodir, xoh bulbul, xohi zog' o'lsun.

Devonda bu kabi tavsifiy g'azallar anchagina. Ular an'anaviy xarakterda bo'lsa ham, shoir mahoratini belgilovchi ahamiyatga egaligi jihatidan ajralib turadi.

G'azal hazaj bahrida yaratilgan bo'lib, V - - - | V - - - | V - - - | V - - - tarzida belgilanadi. Mafoiylun bahrining to'rt marta takrorlanishidan hosil bo'lgan bo'lib, hazaji musammani solimni tashkil etadi.

Amiriy lirikasini inson xarakterining o'ziga xos ifodasi deyish mumkin. Negaki, shoir ma'shuqani kuylaydimi, uning jabr-u sitamlaridan ezilgan, ko'ngul kechinmalarini badiiy talqin etadimi, ma'shuqadan marhamat kutgan, uning tarahhum qilishini istagan oshiqning holatini ko'rsatadimi, bulardan qat'i nazar, barchasida ko'ngul mulkini tahlil qiladi.

«Oshiqmen – ishq o'tida bag'rim kabobdur» misrasi bilan boshlanadigan g'azal bu jihatdan diqqatga sazovordir. G'azal matlasidanoq beparvo ma'shuqa dardida parvonadek kuygan haqiqiy oshiq holati aniq namoyon bo'ladi. Oshqlik – ishqparastlik. Ishqparastlik esa majnunlik sari yetaklaydi. Majnunlik esa ishq o'tida bag'ri kabob, yorining jamolidin bir lahza benasib bo'lib qolsa, holi xarob bo'lishi aniq:

Oshiqmen – ishq o'tida bag'rim kabobdur,
Bir lahza ko'rmasam ani holim xarobdur.

Mana shu sababga ko'ra, oshiq yordan ayrilishni o'zi uchun fojia, deb biladi. Firoqning oshiq ruhiyatini tarbiyalash, uning kamolotini ta'minlashdagi o'rni allaqachon o'z isbotini topgan.

Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod etgan yana bir dilbar shoir Mahzuna (taxallusi; asl ism-sharifi Mehribon mulla Boshmon qizi, taxminan 1811,

Qo‘qonda tavallud topgan) ning oqila va hozirjavobligi, Qo‘qonda mashhur shoira ekanligi manbalarda aytilgan. Hashmat, Pisandiy, tarixchi Ahmadjon to‘ralar ham Mahzunaning barkamol shoiraligini xabar qiladilar. Uning she‘riy qobiliyati, shaxsiy fazilatlari haqida eng ko‘p va iliq fikrlar yozib qoldirgan yagona shoir hozircha Fazliydir.

Fazliy: «Garchi ul zaifa bo‘lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir», deydi. Fazliy bilan Mahzunaning g‘azal shaklida yaratilgan mashhur mushoirasi, «Oshiq bo‘lmisham» (o‘zbekcha) muxammasi, «Sahbo» (forscha) g‘azaligina bizgacha yetib kelgan.

Qachonkim la‘li nobing so‘zda mayli no‘shxand etdi,

Hazin jon-u ko‘ngulni talxkom-u dardmand etdi.

Hazaji musammani mahzuf bahrida yaratilgan mazkur g‘azal olti baytdan tashkil topgan bo‘lib, g‘azal sof lirik shaklda bitilgan. Unda yor vasli, shavqdan kelguvchi iztirob va anduhlar talqinining badiiy ifodasini ko‘rish mumkin.

Vafo qilmagan yordan shikoyat ila so‘z ochgan oshiqdan ayb axtarish gunoh, negaki shoir ul yorning bevafoqligini oshiq jon bergan lahzada yor ag‘yor ila arjumand bo‘lmoqqa shayligi ila isbotlashga kirishadi. Mahzunaning «Etdi» radifli mazkur g‘azalining eng yuqori cho‘qqisi, alaloqibat oshiq ishq kuyida chin haroratni, otashni anglashi va intizor ko‘ngil chin sevgidan bahramandligi ila intiho topadi.

Qiyo boqaymu deb Mahzun, ko‘ngul ko‘p intizor erdi,

Bihamdillo, ki mujgon novakidin bahramand etdi.

Mahzuna yana bir g‘azalida,

Emasman charx davri ichra maydin hech begona,

Quyoshning kosasiddek o‘ynagay qo‘limda paymona.

Teskari aylanguvchi dunyoda tirik bo‘lgan oshiq maydan, ya‘ni ishq, muhabbatdan ayro bo‘la olmaydi. Uning qadahida mavjlanayotgan may shu darajada porloq, yorqinki, misli quyosh. Otashida yorug‘ligida uni eslatadi. Mahzuna ushbu g‘azal orqali o‘zining kechimlarini ifodalar ekan, biroz mubolag‘aga erk berib, shu orqali qalbidagi tengsiz ishqni ayon etishga

chog‘lanadi. Hazaji musammani mahzuf bahrida yaratilgan bu g‘azal mohiyatida faqat shaklga, ya’ni ko‘ringuvchi, anglanguvchi narsaning zohiriga emas, uning mohiyati, mazmuni, botiniga oshiqlik tarannum etiladi.

Erurlar boshqa olam qavmidin ma’noga oshiqlar,
Chivindek bo‘lma, ey Mahzuna, sen sahboga parvona.

Qo‘qon adabiy muhitida muhim ijtimoiy va badiiy estetik ahamiyatga ega ijodkorlardan bir Dilshodi Barno she’riyati xalq taqdirining badiiy yilnomasi darajasiga ko‘tarildi. Shu bilan birga shoira baxtiyor zamon, yaxshi kunlar kelishiga ishondi («Bu jabr-u zulmat albat muvaqqat...», «Farg‘ona» va boshqa), turkistonliklarni do‘st-inoq yashashga undadi («Xaloyiq, borsangiz...», «Tarixi muxosara» va boshqa). Dilshodi Barno lirikasida muhabbat va sadoqat mavzusi, vatan va inson ozodligi masalasi uyg‘unlashib ketgan («Sochim sunbul deyurlar...», «Falakda suzuvchi oy...» va boshqa).

Alisher Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy singari bir qator ijodkorlarning asarlarida ilgari surilgan mavzu ko‘lami va shakl an‘analarini davom ettirgan shoir g‘azaliyotining bosh va birlamchi mazmuni ishq – ilohiy ishq.

Xonaqoh ahlig‘a aytdim: «Alvido, ey so‘filar»,
Dayra kirdim, rindliqni emdi qilg‘um ibtido.

Inson va uning bunyod etilishi-yu, fano ostonasig‘a tushirilish sabablarini axtargan va qisman, bu xususdagi mulohazalarini «Qarab» radifli g‘azali ila anglata olgan.

Odam aytibdur avval ulug‘ nurg‘a qarab,
Bir marta kulgil, ey nur, qaro yerg‘a qarab.

Shoir bayon etayotgan nur – ruh. Ya’ni mohiyati insoniyat uchun azaldan abad yashiringan, almisoqdan beri mavjud ruh xususida. Toza, pokiza ruh qaro yer – insonga qarab tabassum etishi insonni Allohga yaqinlatuvchi bir rishta ekaniga ishora bor. Shoir mazkur g‘azalda ajoyib she’riy shakllarni mahorat ila qo‘llaganki, muhiblarning hayrati yuz chandon oshgay.

Masalan,

Yer aylanib turibdur, parvona xovar uzra,

Hayo teri oqibdur Amu-yu Sirg'a qarab

baytida she'riy san'atning tashxis san'atida o'rinli foydalanilgan. Zamin o'z qaroliklaridan ko'k oldida uyaladi. Bizga ma'lumki, uyalish yuzning qizarishi yoki, aksincha, manglayda ter donachalarining ko'rinishi bilan ifoda etilgan. Yer hayo bilan ter to'kishi va u ter Amu va Sirning o'zaniga qarab oqishi o'zgacha badiiy talqin ila o'quvchilarga anglatilgan.

Bu o'rinda insonga xos jihat yerga ko'chirilgan. Shu bilan birga bu o'rinda mubolag'adan ham foydalanilgan.

Sir-u Amu oqibdur, kishvari kokilidek,
Nazar solmabdur aslo adirg'a qarab.

Ikki kokilidek oqayotgan ikki daryoning o'zani albatta quyiga yo'naladi. Bu, birinchidan, daryo yo'nalishini o'zgartira olmasligi, u hamisha bir tomonga, ya'ni pastlikka oqishini izohlaydi.

Chunki daryo tog'larda vujudga keladi, adirlardan oqib, kengliklarga yoyiladi, dengizlarni makon etadi. Kenglikka tushgan daryo qaytib adirlikka, tog'liklarga ko'tarila olmaydi, bu hayot qonuni. Bu misralarning ma'juziy tomoni borki, hamma kelajakka ketishi va bosilgan yo'lning ortda qolishidir.

Odam qo'lida oxir o'libdur rom jayhun,
Ta'zim etibdur ul dam ul Sirg'a qarab.

Bir so'z bilan aytish mumkinki, shoira bu g'azali orqali inson va olam aro muvozanat, olamda, tabiatda insonning naqadar o'rni-yu, vazifalarini haqida fikr aytadi. Shu bilan birga insonni tadiatga bog'lab turgan ilohiyot haqida falsafiy mushohada yuritadi.

Ushbu davrning yana bir shoiri Gulxaniy o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Bizgacha bir necha g'azali, hajviyalari hamda «Zarbulmasal» nasriy asari yetib kelgan. G'azallarida lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, bahor, real hayotiy manzaralar o'z ifodasini topgan («Barmog'im», «Ey to'ti», «Lola ko'ksidek bag'rim...»). «Bideh» radifli g'azalida shoir navkarlik davridagi hayotini tasvirlagan. Bu g'azalga chuqurroq nazar tashlansa, muallif katta ijtimoiy masala – o'z davrining harbiy tartibi, rasm-rusumlari haqida fikr yuritganligini kuzatish

mumkin. Gʻazalda lirik qahramonning obrazi umumlashma obraz darajasiga koʻtarilgan. Gulxaniy oʻzining zoʻr isteʼdodi, tajribasi, turmushga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalqchil ijodkor sifatida koʻringan. Shoirning bizga maʼlum gʻazallarining ayrimlari Amiriy sheʼrlariga nazira tarzida yaratilgan boʻlib, ular oddiy taqlidchilik doirasida qolmay, barkamol mustaqil badiiy asar darajasiga koʻtarilgan. Gulxaniyning sheʼriy ijodi, garchand, hajman katta boʻlmasa-da, 19-asr oʻzbek milliy adabiyoti rivojiga samarali taʼsir koʻrsatdi.

Hozir ham oʻzbek va fors tillarida ijod qilgan shoirlardan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Zebuniso sheʼrlariga muxammaslar bogʻlagan. Lirikasi rang-barang, unda zamon norasolliklari, johil va odil hukmdorlar haqida mulohazalar bildirilgan, sevgi va muhabbat tarannum etilgan. Sheʼrlarida zamonasidagi hukmdorlarni adolatga undagan.

Muhabbat mehnatin bilgan kishi rohat pisand etmas,

Achiq may istagan maxmur tabʼi mayli qand etmas.

Gʻazal ajib bir oʻxshatish ila boshlanadi. Yaʼni muhabbat zahmatini bilgan odam rohatni istamaydi. Achchiq mayning lazzatini totib sarxush boʻlgan qandni totishdan oʻzini tortadi.

Bu shaydo koʻnglimi chun bogʻladi zunnori zulfi-la,

Kishi devonani zanjir ila bu navʼ band etmas.

Koʻngilni zunnor bilan bogʻlashdan koʻra, telbani zanjir bilan band etish oson. Sababi dilni jilovlash ruhiy boʻlsa, telbani jilovlash jismoniydir. Shuning uchun ham koʻngil ishining ne chogʻli mushkulligi izohlanadi.

Mumtoz sheʼriyatning gʻazal, masnaviy, muxammas va qasida turlarida yaratilgan bu asarlar milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyotning Maxmur ijodida yanada yuksak pogʻonaga koʻtarilganini koʻrsatadi. Shoir oʻz davridagi tuzumning koʻpdan koʻp illatlarini keskin tanqid ostiga olgan, oʻsha zamondagi adolatsizlik, zoʻravonlik va huquqsizlikni fosh etgan. Bu tanqid, koʻpincha, «jafokor falak», «berahm charx» qilmishidan oʻtli shikoyat, achchiq taqdirdan, befayz hayotdan nola-figʻon tarzida yuzaga kelgan.

Qishloq ahlining och-yalang'och hayoti, o'lkani qurshagan vayronagarchilik, xarobazorlarga aylangan qishloqlarning ayanchli manzarasi «Hapalak» satirasida jonli va ta'sirchan chizilgan. Unda shoir juda katta ijtimoiy mazmuni o'ziga xos ramziy obrazlarda, xalqona qochiriq va achchiq kinoyalar, imo-ishoralar vositasida esda qolarli darajada badiiy mahorat bilan ifodalay olgan.

Maxmur xalqning ijtimoiy adolatsizlikka qarshi noroziligini ifodalovchi satirik she'rlar yozdi. Shoir yaratgan «Hapalak» g'azalida xarob qishloqlar, ularda qashshoq hayot kechirayotgan dehqonlar turmushi haqqoniy va ta'sirchan ifodalangan edi:

Bu jahondori zafar, kavkabayi davri falak,
Go'sh qil qissayi qishloqi xarobi Hapalak.
Bori uylarini banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.

Maxmur ijodida «Amakim», «Qozi Muhammad Ali haqida hajviya», «Hakim Turobiy haqida», «Hakim Turobiy tilidan», «Dar hajvi Maxmud Qurama», «Munojot», «Xoji Niyoz», «Takabbur» singari she'rlari muhim o'rin tutadi.

Iste'dodli shoira Nodira she'riyatining asosini ham lirika tashkil etadi. Nodira muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. U go'zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-u fig'onlarini kuyladi. Shoira o'zini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning hayotga umid bilan qarashi, ezgu istaklari va orzusi aks etgan. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog'du ekanligini kuyladi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et!

Nodiraning muhabbat tushunchasi chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muhabbat shaxsiy tuyg'ular doirasidan yuqori ko'tarilib, odamiylikni chuqur idrok qilish vositasiga aylantiriladi. Nodira insonning eng yuksak fazilati vafodorlikda deb biladi. Shoiraning fors-tojik tilidagi «Mebosh» radifli g'azalida vafo mavzusi keng doirada qalamga olinadi. Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi xislatlarni ma'rifatga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi,

odam ana shu sharafli xislatlarni o‘z ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko‘ngil ganjinasida asramog‘ini obrazli qilib tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo‘lar ekan, u riyo yo‘liga kirib ketadi.

Nodira o‘z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo‘nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo‘lidagi ruhiy dunyosini ham juda go‘zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira she‘rlarida islom ruhi, tasavvuf ta’limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug‘ini qidiradi.

Nodira saroyda yashasa ham, o‘zini ma’naviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi. Shuning uchun ham u g‘azallaridan birida: «Meni saltanat masnadida ko‘rib, gumon etmang aysh-u farog‘at bilan», deydi.

Nodira olimlar, shoirlar, ayniqsa, shoiralarni o‘z himoyasiga olgan. Shoira o‘z devonlarining «hamnishin olima afifalar, fozila hamsuhbat sharifalarning maslahatlari va tashabbuslariga ko‘ra jamlangani»ni o‘zbekcha devoniga yozgan so‘zboshisida qayd etib o‘tadi.

Nodira mumtoz she‘riyatning mavjud hamma janrlarida qalam tebratdi. Uning o‘zbekcha va fors-tojikcha g‘azallari aruzning turli vaznlarida 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajmda yaratilgan. Shoira g‘azallarining asosiy qismi 7–9 baytlidir. Nodira mumtoz adabiyot an‘analarini qunt va ixlos bilan davom ettirgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Nodira o‘z g‘azallarida ko‘proq «mukarrar» (so‘zning takrorlanib kelishi) va «qo‘sh mukarrar» usullaridan foydalangan. Asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tadrij, tashxis, intoq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo‘llangan. Nodira fors-tojik tilida ham go‘zal, ta’sirchan she‘rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o‘zbek tilidagi g‘azallaridek yuksak darajada yozilgan bo‘lib, shoira ijodini yana ham keng va to‘laroq o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Nodira ijodiga bo‘lgan qiziqish shoira hayotlik davridayoq boshlangan.

Mashhur shoira Dilshod (1800–1905) Nodiraga maxsus g‘azallar bag‘ishlab, uni «ilm-adab va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlar g‘azalxonisi, shakar

sochuvchi bulbul» deb ta'riflaydi. Nodira g'azallariga juda ko'p shoirlar naziralar yozganlar, muxammas bog'laganlar. Qolaversa, Nodira yashab ijod etgan davr muhitida Uvaysiy ijodining o'ziga xosligini e'tirof etish kerak. Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e'zozlash, odamlarni tabiat va hayot noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat haqidagi ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taallukli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi:

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh,

Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Uvaysiy o'z asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh har tong ufqdan bosh ko'tarib, o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shafqatini sochadi. Shoira yor va oftob tashbihlaridan qarshilantirish san'ati orqali eng go'zal tuyg'ular silsilasini yaratadi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq.

Xon taxallusi bilan ijod qilgan shoir Madalixon Umarxon o'g'li 1808-yilda Qo'qonda tug'ilgan. Uning onasi mashhur shoira Nodiradir. Ma'dalixon yoshligidan boshlab Umarxon saroyining dabdabali muhitida tarbiyalandi. Ayshishrat majlislariga, adabiy o'tirishlarga qatnashib o'sdi. Bu adabiy majlislar unga jiddiy ta'sir qoldirgan va yosh Madalixonni shoirtabiat bo'lib tarbiyalanishiga sababchi bo'lgan edi. Aynan mana shu tashqi omillar natijasida Xon bir qator g'azallar yaratdi. Madalixon o'z zamonasining yaxshi shoirlaridan hisoblanar edi. U she'rda Xon taxallusini ishlatar edi. Undan bir kichik devon qolgan va she'rlarining bir qismi turli bayozlarda bosilgan. Xon bundan boshqa yana Fuzuliyning «Layli va Majnun»iga o'xshatib «Layli va Majnun» nomli bir doston yoza boshlagan bo'lsa ham, tamomlay olmagan. Umuman, Xon Fuzuliy she'rlarining qattiq ta'siri ostida yozar edi.

Dirilur zor tanim la'li duraxshoningdin,
Ochilur uqdayi dil g'unchayi xandoningdin.

Bu g'azal an'anaviy g'azal janrini tartib-qoidalaridan ajralmagan holda bitilgan. G'azal aruz vaznining ramal bahrida yozilgan – ramali musammani mahzuf.

Asarning asosiy negizida oshiq, ma'shuq, raqib va do'st obrazlari bo'lib, ularning barchasi shoir ruhiy kechinmalaridagi tebranishlarni izohlaydi. Shoir ma'shuqa hajrida oh, faryodlar cheki bilan birga ko'zlarini to'ldirib, qon yig'laydi. Mana shu holat oshiqni ma'shuqa oldida gunohlardan poklaydi. Oshiqning ma'shuqadan talabi bitta nigoh, nazar. Ma'shuqa oshiqqa shugina narsani hadya etsa bo'ldi, unga boshqa narsa muhim emas. Ayрилиqing sitamlariga-da, jafolarigada mardonavor turib bera oladi.

Shoir yana bir she'rida,

Ohkim do'kdi falak qonimi mijgonimdin,
Qilmadi bok damodam do'kulan qonimdin,

deya xitob aylaydi. Falak qonni kipriklardan to'kishi mumkinki, buni to'g'ridan to'g'ri anglamoq mushkul. Faqat afsus, nadomat, tazarruni his qilgan odam ko'z yosh to'kadi. Ko'z yosh yurakdan chiqsa, u alam va iztirobni o'zida zohir etgusi va alaloqibat u qondan mevqelanadi. Shoir tavallosida tazarruning ustunligi uning aybini yengillatish, va duosi ijobatidan darak beradi.

G'oziy, Muhammadg'oziy (18-asrning 2-yarmi – Qo'qon – taxminan 1818) – shoir. Buxoro madrasalarida o'qigan. Qo'qondagi Madrasayi Mirda mudarris, mufti bo'lgan. Akmal Xo'qandiyning yaqin do'sti. O'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Fuzuliyning o'ziga ustoz bilgan. She'rlarining mazmuni bilan ham, dunyoga, atrof-muhitga munosabatini ko'rsatishda, badiiy san'atlardan foydalanishda ham Fuzuliy yo'li, uslubini qo'llagan. uning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Ko'proq lirik gazallar, ta'rix-she'rlar yozgan, devon tuzgan. Lirik she'rlarida inson qalbining kechinmalarini, orzu-istaklarini, quvonch va qayg'ularini kuylagan, chin insoniy muhabbat, go'zallik va sadoqat, insonparvarlik va adolatparvarlikni ulug'lagan.

G'oziy she'rlari 18-asrning ikkinchi yarmi – 19-asr boshlaridagi ijtimoiy hayotning haqqoniy manzarasini ko'rsatishga, adabiy hayotda mavjud bo'lgan turli yo'nalishlarning mohiyatini to'laroq yoritishga xizmat qiladi. Ijtimoiy lirikasida esa o'sha davrda hukm surgan adolatsizlikdan, haqsizlikdan, baxtsiz toleyidan shikoyat qiladi («Bukuldi qomatim...», «Devonamen...» va b.). Ta'rix-she'rlari asosan ruboiy tarzida yozilgan bo'lib, ko'pchiligi shahar a'yonlari, yirik amaldorlarning vafotiga bag'ishlangan. Didaktik mavzudagi asarlarida inson fazilatlarini yuqori tutish, hayotla kamtar bo'lish, inson qadrini yerga urmaslik, o'z qadr-qimmatini saqlash zarurligi ta'kidlangan.

Roqim (taxallusi; ismi noma'lum, 1742 – Xorazm – 1814/15) – shoir, xattot. Ijodda Navoiy va Fuzuliyga ergashgan. O'zbek va fors tillarida, mumtoz badiiyatning deyarli hamma janrlarida ijod qilgan. An'anaviy ishqiy lirikasi va ijtimoiy masalalarga oid she'rlari ijodida muhim o'rin tutadi. Ularda davr qiyinchiliklari, jabr-zulmdan shikoyat an'anaviy ishqiy kayfiyatlar orqali ifodalangan, yor madhi turmushning ijtimoiy talqini bilan bog'langan, ishqiy norozilik esa ijtimoiy adolatsizlikdan shikoyat ma'nosini aks etgan.

Falak zulm aylab elga oshkor ohista-ohista,
Olur jonin qilib beixtiyor ohista-ohista.

Yemay-ichmay bukun ko'b jam' qilding siym-u zar naqdin,
Bo'lur go'ringda tongla mo'r-u mor, ohista-ohista.

She'rlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan Huvaydo axloqiy-didaktik yo'nalishdagi mazmunan teran, uslubiy go'zal asarlari bilan adabiy maktab yarata olgan shoirdir. Huvaydo ijodi va dunyoqarashining shakllanishida Yassaviy, Navoiy, So'fi Olloyor, Mashrablarning tasavvufiy, falsafiy fikrlari va asarlarining ta'siri katta bo'lgan. Huvaydo majoziy va haqiqiy ishq haqidagi orifona, dunyoviy she'rlaridan tashqari zolimlik va mazlumlik, kamolot va axloqiy tubanlik haqidagi she'rlarida ham mazkur shoirlar an'analarini davom ettirgan va yangi fikrlar bilan boyitgan.

Huvaydo she'rlari vafotidan so'ng nabiralari tomonidan devon holiga keltirilgan. Unga shoirning 351 g'azal, 28 ruboiy, 41 to'rtlik, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 mustazod, 3 masnaviy hamda axloqiy-didaktik mazmundagi «Rohati dil» manzumasi kirgan. Devondagi ilk she'rlarida ro'za, namoz, zakot, haj, jannat va do'zax bilan bog'liq mavzular yoritilgan, g'urur, manmanlikni tanqid qiluvchi, tavoze', qardoshlik va to'g'riso'zlikni ulug'lovchi hikmatlarga keng o'rin berilgan («Darig'o, hayf, odam...», «Kuygay», «Kimga borib dod etayil..» va b.).

Huvaydoning she'rlarida tasavvufiy unsurlar – nafsni jilovlash va dunyodan o'zni uzoq tutish bosh g'oyalardan biri. Dunyo lazzatining insonni baxtli eta olmasligiga ishongan shoir Allohga, abadiy baxtga erishmoq uchun inson o'zligidan kechmog'i kerakligini anglaydi (mas, «Ango», «Qilding» radifli she'rlari va b.).

Ko'rinadiki, Qo'qon adabiy muhitida g'azal janrida ijod etgan va bu yo'nalishda bir qator yangiliklarni yaratgan ijodkor sifatida Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Xon, Mahzuna, Dilshodi Barno, Xo'janazar Huvaydo, Roqim, G'oziy singari ijodkorlarni keltirish mumkin.

Qo'qon adabiy muhiti g'azal janri uchun bosh mavzu bu ishq. Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Xon singari ijodkorlar g'azallarida bu obrazda ijtimoiylashuv unsurlari ko'zga tashlansa, Dilshodi Barno, Xuvaydo, Roqim kabi ijodkorlar asarlarida ruhiyat bilan bog'liq jihatlar ustunlik qiladi.

Qo'qon adabiy muhiti badiiyati bilan bog'liq hodisalarni Sultonxo'ja Ado ijodi bilan ham bemalol bog'lash mumkin. Ishning keyingi o'rinlarida bunga ham alohida e'tibor qaratiladi.

II BOB. SULTONXO‘JA ADONING HAYOTI VA POETIK MEROSI

1-fasl. Adoning shaxsiyati. Turli manbalarda uning ijodi bilan bog‘liq ma‘lumotlar haqida

Xoja Ubaydulloh Ahror avlodlaridan bo‘lgan Sultonxon to‘ra Ado haqidagi batafsil ma‘lumotlar mustaqillik va oldingi davrdagi adabiy tadqiqotlarda yetarli darajada uchramaydi. Biz hozirgacha ko‘rishga ulguranimiz Abu Tohirxojaning «Samariya», P.Qayyumiyning «Tazkirayi Qayyumiy», B.Valixo‘jaevning «Buyuk ma‘naviy murshid», P.I.Demezov va I.V.Vitkevichlarning «Zapiski o Buxarskom xanstve» kabi kitoblari, ba‘zi bir qo‘lyozmalar va bir necha tadqiqotchilarning maqolalarida ma‘lumotlar o‘qidik. Albatta, Ado haqidagi ma‘lumotlar bular bilan cheklanmaydi. O‘sha davr bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy asarlar, xususan, bayozlarda unga o‘rin ajratilgan. Masalan, adabiyotshunos E.Shodievning qayd etishicha, «Bayozi Faxri Ro‘moniy»da shoir she‘rlari bor.

Shayxulislom, xo‘jakalon Sultonxon to‘ra Adoning tug‘ilgan yili ma‘lum emas. U Amir Umarxon davrida Qo‘qonda yashagan, Amir Haydar davrida Buxoroda shayxulislomlik qilgan. Amir Haydar vafotidan so‘ng Nasrulloxonning hukmronlik yillarida ham Buxoroda shu mansabda bo‘lgan. Uning hayoti va ijodi bilan bog‘liq ma‘lumotlar Qo‘qon xonligining XVIII asr oxiri XIX asr boshlari bilan bo‘g‘liq bo‘lgan tarixiy asarlarda uchraydi. Ularda Sultonxonto‘ra Adoning Umarxonga eng yaqin kishilardan bo‘lganligi qayta-qayta ta‘kidlanadi.

Amir Umarxon saroyidagi muhtaram a‘yonlardan biri bo‘lganligini Muhammad Hakimxonning «Muntahab ut-tavorix» asaridagi mana bu ma‘lumot dalillaydi: «Umarxon amiral-mo‘minin nomini olib, o‘z nomiga xutba o‘qittirib, vasiqa uradi. Shohlik tojini kiyib, saltanat taxtiga o‘tiradi. Va u Chingizxonning amalini o‘z umarolariga nomaod qiladi. Chunonchi, Eshon to‘ra xo‘ja Maxdum A‘zamiy va Eshon Sultonxonto‘ra Ahroriylarni xojakalonlik amali bilan sarafroz etdi». Xo‘jakalon amirlikdagi rasmiy mansab emas, balki fiqh olimining faxriy unvonidir. Ado fiqhiy masalalarda xonning maslahatchisi bo‘lgan.

«Tarixi Shohruxiy» asarida ham «...hukmi shar‘iyni joriy aylab, har vaqt amirning (Umarxonning – O‘.M.) majlisida ulamoyi muhaqqiqlar (haqiqat

izlovchilar) bo‘lib¹⁷», – deya qayd etiladi va bir qator yuqori mavqega ega bo‘lgan din peshvolari va davlat arboblari, jumladan, Zokirxo‘ja eshon, domla Mirzo Kalon, domla Mo‘minjon Mavlaviy, Sul-tonxon to‘ra Ahroriy, Mahmudxon to‘ra Ahroriy, Ma‘sumxon to‘ra va Jahongirxon to‘ra kabi shaxslarning nomlari keltirib o‘tiladi.

«Majmuayi shoiron»da Sul-tonxon to‘ra ulug‘lanib quyidagicha vashf qilinadi:

Ado mulki ma‘nida sulton erur

Xiradmandi iqlimi Turon erur.

Tojik tilidagi ta‘rif-tavsifda esa:

Ado dar riyozu suxan komron,

Sari xojagon, faxri ahroriyon, – deyilgan.

Ya‘ni u so‘z bo‘stonining hokimi, xojagon tariqatining peshvosi, ahroriylarning faxridir.

Ibratning «Farg‘ona tarixi» asarida esa, «Bu jannatmakon asrinda (Amir Umarxon nazarda tutilmoqda – O‘.M.) hamsuhbat va musohib ulamolardan, chunonchi, Zokirxo‘ja Eshon, Shayx ul-islom Namangoniy, Mavlaviy Namangoniy ... Is‘hoqbek To‘ra, Sul-tonxoto‘ra ...lar bo‘lub, podshohlikg‘a taalluq har ish va hukm bo‘lsa bularning fatvolari ilan amal qilur ekan¹⁸» deyiladi. Ushbu kabi ma‘lumotni Mirza Olim Maxdum Hojining «Tarixi Turkiston» asarida ham uchratamiz. Bu asarda muallif Sul-tonxon to‘ra Ahroriyni amirga doimo suhbatdosh bo‘lganini podshohlikka taalluqli har qanday amr bo‘lsa, Umarxon Sul-tonxon to‘ra Ado kabi ulamolar toifasiga havola qilganini, ular bilan birga shariat hukmini joriy etganini aytadi.

Umarxon vafotidan keyin Muhammad Alixonning hukmronlik yillari boshlanadi. Bu davrda ham Ado xonlikning siyosiy va ijtimoiy rivojlanishida maslahat beruvchi asosiy shaxslardan bo‘lib qolaveradi. Muhammad Alixon turli masalalarda Sul-tonxon to‘radan maslahatlar so‘raydi. Masalan, Amir Nasrulloning ukasi Umarxon o‘z akasidan qochib Marg‘ilonga kelganda, Muhammad Alixon

¹⁷ Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 4463. - 121 a varaq.

¹⁸ Farg‘ona tarixi / Ibrat – T., Kamalak, 1991. 291-bet

uning istiqboliga oddiy xizmatdagi kishilardan birini chiqarmoqchi bo'radi. Shunda Sultonxo'ja Ado Umarxonning Buxoro shahzodasi ekanini ta'kidlab, kutib olishga Sulton Mahmudxonni (Muhammad Alixonning ukasi) yuborishni maslahat beradi. Xon buni qabul qiladi.

Hijriy 1244-yilda Buxoro amiri Nasrulloxon Muhammad Alixonga elchilar yuboradi va Sultonxo'ja Adoni o'ziga so'ratadi. Ado Buxoroga borgach amir unga shayxulislomlikni beradi.

Qozi Rahmatulloh Vozehning «Tuhfat ul-ahbob» tazkirasida Ado malik-ul kalom, fozillar peshvosi, Xoja Ubaydulloh Ahrorning avlodi ekanligi ta'kidlanadi.

Gulxaniy «Zarbulmasal»da bir necha fozillar qatorida Adoni ham o'z zamonasining kamtarlaridan edi, deb yozadi.

Qo'qon adabiy muhiti rivojiga Ado nafaqat shoir o'laroq, balki moddiy va ma'naviy ko'maklari bilan ham hissa qo'shgan. «Umarxonning arkida bir marosim ijro etilib har tomondan fozillar, ajib va shoirlar to'planib «Malikush shuaro» Sulton xo'ja Eshon Adoning taxti rayosatida adabiy majlis bo'lub shoirlar o'z she'rlarini o'qub, tahsinga loyiq bo'lganlar mukofotlanganlar¹⁹».

Sultonxo'ja Ado va Naqibxon Tug'ral Ahroriylar (bu kishi ham Xoja Ahror avlodlaridan) bobolari orqali meros bo'lib kelaytogan naqshbandiya tariqatining yoyilishida o'z hissalarini qo'shganlar. Bular tariqat silsilasining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi vakillaridandirlar.

Adoning ijodiga uning zamondoshlari ham yuqori baho berishgan. O'z zamonasining taniqli kishilari Fazliy, Hoziq, Hakimxon to'ra kabilar u bilan yaqin munosabatda bo'lishgan. Hakimxon to'ra o'z xotiralarida yozishicha, chet ellarda kechgan sarsonlik-sargardonlikdan qaytganida, Buxoroda uni Ado kutib olgan va Hakimxon to'ra uning yordami bilan amir Nasrullo huzuriga bormay, Buxorodan eson-omon chiqib ketgan.²⁰

O'z zamoning ilg'or, haqgo'y va to'g'ri so'zli shoirlaridan biri Junaydulla Hoziq «Yusuf va Zulayho» dostonining xotimasida Qo'qonda uchta mashhur shoir

¹⁹ Qayumov P. «Tazkirayi Qayyumiy». – Toshkent «O'zRFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi», 1999-yil. 1-jild, 144-bet.

²⁰ Hakimxon, Xotiralar, T.: «Fan» nashriyoti, 1966-y. 103–105-bet

borligini va ana shu uch iste'dodli shoirdan birinchisi Ado ekanini alohida ta'kidlaydi:

...Dar in ahd az buzurgoni viloyat,
Se tan boshand ravshandil bag'oyat.
Ki chun dar arsayi ash'or oyand,
Zi har kas ko'yi ma'ni dar raboyand.
Yakero to falak iqbol doda,
Saodat nom Sul-tonxon nihoda.
Ba har ma'ni zi bas ta'bash raso shud,
Taxallus niz dar she'rash Ado shud.
Az on ro' rostgori dar hasab yoft,
Ki az Ahror dar gavhar nasab yoft.
Zi boz fikrash dar tab'i mavzun,
Nameyobad rahoyi saydi mazmun.
Chunon boshad xayolash mo'chiz insho,
Ki yakdam chashm baxshad bo muammo.

Ma'nosi:

Bu elda mo'tabarlardan nihoyat,
Uch tan erdi ravshan dil bag'oyat.
Agar she'r bobida so'z ochsa ular,
Har kimni o'ziga tez maftun etar.
Biriga to falak iqbol bergay,
Saodat nom Sul-tonxon atalgay,
Har ma'nida ta'bi juda raso u,
Taxallus qo'llagay she'rda Ado u.
Shu boisdan topdi rostlik hasabdan,
Erur gavharda Ahroriy nasabdan.
Uning fikri ta'bda erdi mavzun,
Topolmaydi rayohi sayd mazmun,
Chunon erdi xayoli mo'jiz insho,

Yechardi bir nafasda u muammo.

Sharqshunos Demezov (1807–1873) 1834-yil yurtimizga keladi. Buxoro va Samarqand shaharlari bilan tanishadi, turli odamlar bilan uchrashadi. Sayohati haqida hisobot yozadi. Ana o'sha hisobotda u Sul-tonxo'ja Ado haqidagi ma'lumotlarga ham keng o'rin ajratadi. Xususan, Adoning uyida mehmon bo'lgani, u bilan yakkama-yakka suhbat qurgani, shayxulislom unda katta taassurot qoldirganini aytadi. Shoir to'g'risida boshqa manbalarda uchramaydigan tafsilotlarni bayon etadi. Unda Adoning o'z qadrini biluvchi, tilyog'lamalikni yoqtirmaydigan to'g'ri so'zli ehtiyotkor shaxs ekanligini yozadi. Shoir Buxoro amiri atrofida-gilarining xushomadgo'yliklarini ham, amirlikning ishlarini ham ma'qullamasligini aytadi. Shuningdek, Ado ko'plab fanlarga, jumladan, kimyo, geografiya, tibbiyotga qiziqishini aytadi. Misni oltinga aylantirish tajribasini o'tkazganini, bu borada farang olimlari qanday fikrdaligini Demezovdan qiziqib so'ragan ekan. Sharqshunos Demezov Sul-tonxo'ja Adoning she'riyat bilan shug'ullanishi, she'rlari uni Turkistonga mashhur qilgani to'g'risida ham yozib qoldiradi.

«Tazkirayi Qayyumiyy»da ham Sul-tonxo'ja Ado haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. To'plam muallifi uning 1-daftarida Adoni 74-raqam bilan belgilab o'quvchilarga tanishtiradi. Undan biroz avvalqroq esa (138-betda), «Saroydagi Afsus, Ma'yus va Ado kabi aristokrat to'ralar Ma'dan G'oziylarga o'run bermay xon atrofini o'raganlar» deyilgan. Saroyda ijod qilgan shoirlarni mana shu shaklda tanishtirish sovet munaqqidlarining «an'anasi» edi. Shunga muvofiq muallif Ado haqida yozar ekan, «bu kishining agarchi o'zbek tilida bir necha ash'ori obdorlari bo'lsa ham o'zbek shoirlari qatorida ko'rsatolmaymiz» deydi va Qo'qonda bir necha yillar istiqomat qilgani bois «mehmon shoirlar» qatorida ko'rsatishni ixtiyor etadi. Xol Boqiy va Nasriddin ismli ikki mahram xodimi (xizmatchilari ma'nosida – O'.M.) bo'lganligini aytadi. «Gar Ado Navoiydan so'zini...» baytini xonga maddohlik va yaltoqlik ma'nosidagi bayt deb uqtiradi. Shoir haqidagi ma'lumotlardan keyin uning «Biri» radifli g'azalini keltiradi.

Shoir ijodiga sobiq sovet davri o'zbek adabiyotshunosligi ko'pincha biryoqlama munosabatda bo'lgan. Xususan, Adoni feodal-klerikal adabiyot vakili sifatida tanishtirishgan. U va u kabilar haqida: «Yirik aristokrat va podshohning vaziri Qosim beklarbegi Vazir, yirik aristokrat va ruhoniy, shayxulislom, Umarxon saroyining «malik ush-shuarosi» («shoirlar podshohi») Sultonxon to'ra Ado va ularning hamfikrlarining sinfiy manfaati bir xil edi. Xonlar ana shunday guruhlarning, ya'ni hukmron feodal aristokratiyasining boshlig'i, shu sinf manfaatlarining himoyachisi, to'g'rirog'I, o'sha sinf talablarini amalga oshiruvchi ijrochi edilar²¹», – deyilgan. Boshqa bir o'rinda esa quyidagilarni o'qiymiz:

«Bu shoirlar ijodining xususiyati shundan iboratki, ularda Qo'qon xonligi, uning amiri Umarxon ko'klarga ko'tarilib maqtaldi, u hatto Husayn Boyqaro va Bobirdan ustun qo'yildi. G'oyat kibr-havoga berilgan balandparvoz saroy shoirlarining har biri o'zini «Nizomiyi asr, Jomiyi zamon, Navoiyi maydoni suxan» deb hisoblar edi. Masalan Ado:

Gar Ado Navoiydan so'zini o'tkarsa netong,

Shoh Umar afzalmu yo Sulton Husayni Boyqaro –

deb maqtangan²²».

Qo'qon adabiy muhiti vakillarining ijodi sovet davri adabiyotshunosligida o'rganilar ekan, ularning faoliyatiga, xususan, Sultonxo'ja Adoga eksplutator sinf ijodkori sifatida qarash kurakda turmaydigan tuhmatlar qilishga ham olib bordi.

«Amir Umarxon o'z saroyi atrofiga ko'pgina shoirlarni to'plagan edi. Bu shoirlarning anchagina qismi Fazliy, Nusrat, Ado va Xijlatga o'xshagan maddoh, xushomadgo'y shoirlar edi. Bu shoirlar dag'dag'a bilan qasidalar yozar, erotik she'rlarida ishratparastlikni kuylar, ko'pincha Amiriy she'rlariga hamda bir-birlariga taqlid qilib baytlar bitar edilar²³».

«Dag'dag'a bilan yozilgan» tubandagi kabi she'rlari, albatta, shoirni maddoh, aristokrat va boshqa siflatlar bilan atashga asos qilib olinardi

²¹ Qayumov A., «G'oziy», T. 1959-yil, 24-bet

²² Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi 2-kitob (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). T.: «O'qituvchi», 1967-y. 118-bet

²³ Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi 2-kitob (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). T.: «O'qituvchi», 1967-y. 162-bet

Umar sulton, ilohiy, to jahon borcha bor o'lsun,
Humoyun davlati-la komron-u komkor o'lsun.
Agarchandi jahon semob yanglig' beqaror ermish,
Senga bu taxt-u toj-u baxt-u davlat barqaror o'lsun.

Ado va boshqa shoirlar ijodlarining janrlar bo'yicha tahlili ham yuqoridagi fikrlardan aslo qolishmaydi. Ularning «aybi» saroyda yashagani, tasavvufiy mavzularda she'rlar yozgani, Xo'ja Ahror Valiy kabi ulug' zotlarga avlod bo'lganliklari edi.

«Aristokratik zavq bilan g'azallar yozgan Ado, Ashurmuhammad Ramziy, Fazliy, Ziynat va Munshiy qasida janrida asarlar yozishda ham adabiyot ahllariga buyruq qilib, ularni safsatabozlikka undar edilar²⁴».

Sultonxo'ja Ado haqidagi nisbatan to'liqroq ma'lumotlar akademik Azizxon Qayumovning 1961-yilda chop etilgan «Qo'qon adabiy muhiti» kitobida uchraydi. Olim Sultonxo'ja Adoning bolalik yillari haqida kitoblarda hech qanday ma'lumot uchramasligi, faqat Samarqandda tug'ilganligi to'g'risida xabarlar borligini aytadi. Adabiyotshunos Ado haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan, unga feodal-klerikal adabiyot vakili sifatida qarashni tayanch nuqta qilib oladi. Shaxsi va ijodiga shu nuqtayi nazardan yondashadi. Shoir haqida ma'lumotlar keltirishda Hakimxonning «Muntahab ut-tavorix» asarini asosiy manba sifatida belgilaydi.

Sultonxo'ja Adoning vafoti 1835–36-yillarga to'g'ri keladi, qabri Samarqandda, Bu haqda Abu Tohirxojaning «Samariya» asarida quyidagilarni o'qiymiz: «Sultonxon xojayi shayxulislomning qabri Xoja Ahror hazirasining²⁵ janub tomonidadir... 1251 da Buxoroda o'ldi. O'ligini undan Samarqandga keltirib hurmatlik bobosi yonida (xoja Ahror yonida – O'.M.) ko'mdilar²⁶». Sadriddin Ayniy «Namunayi adabiyoti tojik»da Sultonxo'ja Adoning vafot etgan vaqtini hijriy 1252-yil Buxoro deb ko'rsatadi. Va bunga «Afsus murd Sultonxon» nomli she'rdan abjad hisobi bo'yicha javob chiqishini ta'kidlaydi. Qozi Rahmatulloh

²⁴ Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi 2-kitob (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). T.: "O'qituvchi", 1967-y. 166-bet

²⁵ Hazira حظيرة a. Qabristondagi xilxona. (Navoiy asarlari lug'ati, T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972-yil.)

²⁶ Samariya / Abu Toxirxoja – T., Kamalak, 1991. 49-bet

Vozehnig «Tuhfat ul-ahbob» tazkirasidagi ma'lumot bo'yicha esa shoir 1250-hijriy yilda vafot etgan. «Tazkirayi Qayyumiy»da esa bu sana 1258-hijriy yil deb ko'rsatiladi.

Muhammad Hakimxon o'zining «Muntahab ut-tavorix» asarida Adoning 1250-hijriy yilda isitma kasali bilan og'rib sakkiz kungacha behol bo'lib yotganini, tabiblar har qancha harakat qilsalar ham, befoyda bo'lganini, sunbula oyining 12-sanasi payshanba kunida vafot etganini yozadi.

Shoirdan bizga bir necha devonlari va turli bayozlarga kiritilgan asarlari adabiy meros bo'lib qolgan.

Qozi Rahmatulloh Vozehnig «Tuhfat ul-ahbob» tazkirasidan ma'lum bo'lishicha, uning turkiy va forsiy tilda devoni bor. Uning qasidalari ham ko'p ekanligini, ulardan katta bir hajmlisi «Nola va fig'on» deb atalishini ham mana shu asardan bilib olamiz.

Sadriddin Ayniy «Namunayi adabiyoti tojik»da Sul-tonxon to'ra Adoning ham turkiy tilda, ham forsiy tilda devoni borligini aytadi. Hamda mazkur to'plamda shoirning 3 ta g'azalini keltiradi. Ular: «Angusht» radifli g'azal, «Dilamro hamchu» deb boshlanuvchi g'azal hamda «Hano'z» radifli g'azal. Mana shu oxirgi g'azal Qozi Rahmatulloh Vozehnig «Tuhfat ul-ahbob» tazkirasidan olingan. Shuningdek, to'plamda shoirning to'rtta fardi ham o'rin olgan.

1896-yilda Abdulkarim Kamiy tomonidan tuzilgan bayozda ham Ado g'azallaridan namunalar berilgan. 1945-yilda nashr etilgan «O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi»ga Adoning uchta she'ri, ya'ni «Somondin par dema...», «Ey ko'z, ayla mardumlig'...», va «Karkining shohi kibi...» g'azallari kiritilgan.

Adabiyotshunos O.Jo'raboyevning «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 2009-yil 28-sonidagi maqolasida Sul-tonxon Ado Ahroriy tomonidan tartib berilgan, hozirda Ozarbayjon Fanar Akademiyasida saqlanayotgan qo'lyozma manba haqida ma'lumot uchraydi. Unga ko'ra, mazkur manbada Navoiy va Fuzuliy ruboiylaridan bir nechasi Ado tomonidan ruboiy-mustazod qilingan.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid bo‘lgan «Miroti futuh» («G‘alaba ko‘zgusi») asarini rus olimi L.A.Zimin Sul-tonxo‘ja Adoga nisbat beradi. Hozirgi kunda bu asar yo‘q, faqat tadqiqotchilarning ma‘lumotlari orqaligina undan xabardormiz.

Bizningcha, bu asar Adoniki emas. Chunki kitob mundarijasi bo‘yicha undagi voqealar 1898-yilgacha kechadi. S.Ado 1835–36-yillarda vafot etgan. Qolaversa, birorta manbada Adoning tarixnavislikka oid asari borligi aytilmaydi.

Abdulkarim Fazliyning «Majmuayi shoiron» tazkirasida Sul-tonxo‘ja Adoga keng o‘rin ajratilgan. Uning ko‘plab she‘rlaridan namunalar keltirilgan. Uning haqida yaxshi va maqtoqli fikrlar aytilgan. Jumladan, Fazliy mulamma‘ she‘riy shaklida Adoning «Do‘ndirdi» radifli o‘zbekcha g‘azalidan avval masnaviy janrida tavsif keltiradi:

Ado bulbuli bo‘stoni suxan,
Suxan misroyad zi nav to ko‘han.
Varo goh-gohi xayoli raso,
Ba guftoru turkiy shud rahnamo.

«Majmuayi shoiron»ning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari asosida Sul-tonxo‘ja Adoning mazkur tazkiradan o‘rin olgan she‘rlari mundarijasini quyidagi jadvalga joylash mumkin.

T/r	Janr	Til	Harf	Radif
1.	G‘azal	Forsiy	ا	-
2.	G‘azal	O‘zbekcha	ا	-
3.	G‘azal	Forsiy	ب	امشب
4.	G‘azal	Forsiy	ت	انگشت
5.	G‘azal	O‘zbekcha	ج	تاج
6.	G‘azal	Forsiy	خ	سرخ
7.	G‘azal	Forsiy	د	رود
8.	G‘azal	Forsiy	د	ندارد
9.	G‘azal	Forsiy	ذ	کاغذ
10.	G‘azal	O‘zbekcha	ر	-

11.	G'azal	O'zbekcha	ر	گپ اور
12.	G'azal	O'zbekcha	ر	اوستندهدور
13.	G'azal	Forsiy	ز	امروز
14.	G'azal	Forsiy	س	-
15.	G'azal	Forsiy	ش	-
16.	G'azal	O'zbekcha	ش	ایتمش
17.	G'azal	Forsiy	ص	مخلص
18.	G'azal	Forsiy	ض	عرض
19.	G'azal	Forsiy	ط	خط
20.	G'azal	Forsiy	ع	شمع
21.	G'azal	Forsiy	ف	یکطرف
22.	G'azal	O'zbekcha	ق	اویداماق
23.	G'azal	O'zbekcha	ک	کورونگ
24.	G'azal	O'zbekcha	ل	قیل
25.	G'azal	Forsiy	م	شدهام
26.	G'azal	Forsiy	م	انگوشتم
27.	G'azal	Forsiy	ن	چشم من
28.	G'azal	Forsiy	ن	آمدبرون
29.	G'azal	O'zbekcha	ن	السون
30.	G'azal	O'zbekcha	ن	-
31.	G'azal	O'zbekcha	و	بو
32.	G'azal	O'zbekcha	ه	-
33.	G'azal	O'zbekcha	ه	اوتینه
34.	G'azal	O'zbekcha	ه	اچره
35.	G'azal	Forsiy	ی	ایطوطی
36.	G'azal	Forsiy	ی	ایقمری
37.	G'azal	O'zbekcha	ی	بیری
38.	G'azal	O'zbekcha	ی	دوندودی
39.	Muxammas	Forsiy	-	-

40.	Muammo	Forsiy	-	-
41.	Muammo	Forsiy	-	-
42.	Muammo	Forsiy	-	-
43.	Muammo	Forsiy	-	-

Hozirgi kunda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Sharq qo‘lyozmalari markazida № 8200 va № 4460 raqamlari bilan qayd etilgan devonlari, № 8280, № 4375, № 9014 raqamlar bilan ostida mustazodlari saqlanadi.

Shoir hayoti va ijodini o‘rganishda ko‘rsatib o‘tilgan qo‘lyozma manbalar, qolaversa, bayozlarni topib, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga to‘laligicha tabdil qilish adabiyoshunosligimizdagi vazifalardan biri deb hisoblaymiz.

2-fasl. Adoning badiiy asarlarda tarixiy obraz sifatidagi ishtiroki

Sultonxo‘ja Adoning nomdor ijodkor bo‘lgani, xonlikda alohida mavqeyi borligi sabab tarixiy jarayonlarni asos qilib olgan turli – roman, qissa, erkin adabiy janrlardagi zamonaviy asarlarda va esdaliklarda ham uning nomi tilga olinadi.

Shoir tarixiy asarlarda epizodik obraz sifatida ishtirok etar ekan, ularning barchasida uning o‘ziga xos shaxsiyati deyarli bir xil tarzda ifodalanadi. Ya’ni uning islom ta’limotlariga amal qilishi, amirning xos a’yonlaridan ekanligi va boshqa holatlarni fikrimizga asos qila olamiz.

Xususan, M.Qodirovaning erkin adabiy janrdagi «Davr Nodirasi» asarida²⁷ quyidagilarni o‘qiymiz. «... Bugungi shoirlar anjumani juda katta bo‘ldi. To‘rga xonning o‘zi kelib o‘tirdi. Shohning bir tomonidan Sultonxon to‘ra Ado, ikkinchi tomondan Fazliy o‘rin olgan edi» (57-bet). Mazkur parchadan Adoning mansab va mavqe jihatidan shohga yaqin bo‘lganligini anglashiladi. Shuningdek, uning xonlikda xo‘jakalonlik maqomida ekanini inobatga olmay ham, ana shu davrda «Malik ush-shuaro» unvonini olganligiga e’tibor qilinsa, Amir Umarxonning yonida o‘tirishga, albatta, haqlidir.

Asarning xuddi shu o‘rnida Fazliy Namangoniy anjumanni Amir Umaxon g‘azali bilan ochilishini e’lon qiladi. Kim mazkur g‘azalga eng yaxshi nazira bog‘lasa, saroydan ot minib chiqib ketishini aytadi. Amiriy «Ko‘rung» radifli g‘azalini o‘qib beradi. Unga birin-ketin naziralar bog‘lanadi. G‘azallar baland ovozda o‘qilayotgani uchun haram ayvoniga, u yerdagi Nodira va Uvaysiyga ham eshitilardi. Nodira Amiriyning yangi g‘azaliga nazira bog‘lanayotganini payqaydi hamda bunday deydi: «Nahotki shunday Ado va Fazliygga o‘xshagan katta shoirlar xon tomonidan jilovlab qo‘yilgan va soddagina yozilgan bitta g‘azalga javob aytishib, fikriy qashshoqlikka tushib qolgan bo‘lsalar, afsus» (58-bet).

Bu o‘rinda Nodira tomonidan Sultonxo‘ja Adoning «katta shoir» deya baholanishi nazarimizni o‘ziga tortmay qo‘ymaydi.

«Davr Nodirasi»da «Ko‘rung» radifli g‘azal va unga bog‘langan naziralar berilmaydi. Zotan, bu muallifning majburiyatida ham emas. Tarixiy hodisani

²⁷ Qodirova M., «Davr Nodirasi», T.: «Fan», 1991-y.

badiiy asarda toʻlaligicha ifoda etib boʻlmaydi. Eʼtiborlisi shundaki, agar ushbu voqea tarixiy faktlarga asoslanib «Davr Nodirasi»ga kiritilgan boʻlishi mumkin. Chunki Amiriyning ham, Adoning ham «Koʻrung» radifli gʻazallari bor. Ikkala gʻazalning ham radifi, qofiyasi, vazni bir xil boʻlgani esa oʻsha hodisani boʻlib oʻtgan deyishga undaydi. Amiriyning gʻazali quyidagicha:

Jon aro yuz dogʻ ila koʻnglumning ozorin koʻrung,
Soʻngra oning xatt-u laʼl-u xol-u ruxsorin koʻrung.

Halqayi zulfin tilab koʻnglum qoshi mehrobida,
Ankabuteturki, oning chirmagʻon toring koʻrung.

Koʻnglumiz band oʻlsa, tong yoʻq, uqdayi har moʻyigʻa,
Bu qari jon rishtasidin zulfining torin koʻrung.

Yor bel-u ogʻzidin somon-u sabrim qolmadi,
Yoʻq-u borimni sovurdi, yoʻq ila borin koʻrung.

Ey nasihat ahli, achchiq yigʻlarimgʻa hajr aro –
Ehtiroz etmang, aning laʼli shakarborin koʻrung.

Dayr piri qildi tufrogʻimni sahbo birla loy,
Ayladi taʼmir – bu vayrona devorin koʻrung.

Kofiri ishq oʻldi bu devona, bovar etmasa,
Ul barahmanzodani zulfi ila zunnorin koʻrung.

Gar tabassum chogʻida laʼlin yoshurdi ul pari,
Bok emas, anda iki ruxsori gulnorin koʻrung.

Bir tabassum birla yuz jon oldi ul oromijon,

Bir yo‘li lutf etmadi, yuz qatla ozorin ko‘rung.

Ishq iqlimini tasxir etti iqbolim, Amir,

Xisrav-u, Jamshid-u, Iskandarning osorin ko‘rung.

G‘azal asar qahramoni («Davr Nodirasi») aytganidek «soddagina yozilgan» emas. Undagi tasvir, so‘zlarga yuklangan ma‘no ko‘lami boy va jozibadordir. Shuningdek, she‘rdagi badiiy san’atlar ham asarni o‘qishli qilgan. Mazkur g‘azalga S.Ado tomonidan bog‘langan nazira quyidagicha:

Karkning shoxi kibi misvok-u dastorin ko‘rung,

Bul quruq zohidni navbat birla pindorin ko‘rung.

Xonaqoda ko‘purib xalqi nishora to‘ldurib,

Jahriya shayhini xush dandona minshorin ko‘rung...

Bog‘a ne nisbat gulandoming‘a sarv-u g‘unchaning,

Eshitib guftorini, siz gohi raftorin ko‘rung.

Yuziga bahs etti bog‘lab shahr aylanturdilar,

Gul qulog‘ig‘a qoqilg‘on xor mismorin ko‘rung.

Nahli qaddin bog‘boni sun‘ payvand aylamish,

Pista-yu bodom birla olma-yu norin ko‘rung.

Qosh, kiprikni kamand-u tig‘ etar jon qasdig‘a,

Ul sanamni nargisi, joduyi ayyorin ko‘rung.

Notavonlig‘din agarchi kiprigin aylar aso,

Qon ichar parhez etmay chashm-bemorin ko‘rung.

Husnining boricha zulm etmas, tarahhum aylamang,

Siz Ado holig‘a boqmang, nozanin yorin ko‘rung.

Ado tomonidan bitilgan mazkur misralar tatabbuning qonun-qoidalariga mos keladi, deya bemaolol aytishimiz mumkin. Chunki she‘riy san‘atning talabiga binoan ikkinchi g‘azal birinchi g‘azalga taqliddan iborat emas, aksincha, shoir unga ijodiy yondashgan, mavzu yanada yorqinroq ifodalangan va badiiy saviya yuksalgan.

Asarning keyingi o‘rinlaridagi (60-bet) Nodira va Umarxon suhbatida xonning mana bu so‘zlarini o‘qiymiz: «Bugun mahkamadagi mashvaratda saltanatimizning obro‘yi yana ham oshsin deb, shayxulislomimiz Ma‘sumxon to‘ra bir becha diniy mansablarni tavsiya qildilar... Sultonxonto‘ra Ado ham «Xoja kalonlik» mansabiga ko‘tarildi». Bu tasvir tarixiy haqiqat ekanini Muhammad Hakimxonning «Muntaxab ut-tavorix» asaridan bilib olamiz. Asarning V bobida Hakimxon shunday yozadi: «Umarxon amiral-mo‘minin nomini olib, o‘z nomiga xutba o‘qittirib, vasiqa uradi. Shohlik tojini kiyib, saltanat taxtiga o‘tiradi. ... Eshon to‘ra xo‘ja Maxdum A‘zamiy va Eshon Sultonxonto‘ra Ahroriylarni xojakalonlik amali bilan sarafroz etdi²⁸».

«Davr Nodirasi»ning keyingi sahifalaridan birida shunday tasvir bor: «Umarxon ... saroy amirlari, beglari va va ulamolarining maslahati bilan ish tutardi. Bu safar ham xonning O‘ratepaga yurishini ma‘qullab Is‘hoqxonto‘ra, Sultonxonto‘ra, Ma‘sumxonto‘ra, Eshonxonto‘ra, Jahongirto‘ra, va Said ofoqiylar fatvo berdilar» (63-bet). Mirza Karimning «Mohlaroyim» romanida²⁹ ham mazkur holatga yaqin epizod bor. Unda mana bunday deyilgan: «Amir Umarxon ... Mohlaroyimdek ko‘ngil dardini sezuvchi yo‘ldoshi bor ekan, kam bo‘lmadi, vaziri kalon Ismatullabiy, shayxulislom Ma‘sumxon to‘ra, xo‘jakalon Sultonxonto‘ra va Mavloni Abdulkarim Fazliy kabi niyati pok, el-ulus dardini o‘z dardi bilan baham ko‘radigan olijanob kishilar etagida saltanatni boshqarib turdi».

Yuqoridagi ikki asardan biz iqtibos qilib olgan ma‘lumotlar tarixiyligini Is‘hoqxon Ibratning «Tarixi Farg‘ona» asaridan bilib olish mumkin. Unga ko‘ra,

²⁸ Vohidov SH.X., XIX – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi, Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. T., 1998. 152-bet.

²⁹ Mirza Karim. Mohlaroyim: Roman. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1993.

«Bu jannatmakon asrinda (Amir Umarxon nazarda tutilmoqda – O‘.M.) hamsuhbat va musohib ulamolardan, chunonchi, Zokirxo‘ja Eshon, Shayx ul-islom Namangoniy, Mavlaviy Namangoniy ... Is‘hoqbek To‘ra, Sultonxonto‘ra ...lar bo‘lub, podshohlikg‘a taalluq har ish va hukm bo‘lsa bularning fatvolari ilan amal qilur ekan³⁰».

«Mohlaroyim» romanining o‘ndan ortiq o‘rnida Sultonxo‘ja Ado nomi tilga olinadi. Deyarli barcha joylarda uning Amir Umarxonga yaqin bo‘lgani, taqvodorligi, yaxshi she‘rlar yozishi adib nigohida turadi.

Romanning «Xon ko‘ngli» deb atalgan qismida Amir Umarxon saroy a‘yonlari va xos navkarlar bilan ovga chiqqani tasvirlangan. Ov boshlanmay turib Fazliy xonga maqto‘v tarzida «Adlidan va har mulkka zeb-u ziynat berishidan Sulton Husayn davri baxtsizlik bo‘lib qoldi» ma‘nosida forscha bayt o‘qiydi. Shoh mamnunlik izhor qildi. «Sultonxon to‘ra Fazliyning bir baytidan olampanohning boshi osmonga qadar ko‘tarilganini sezdi-da, o‘zining undan kam emasligini namoyish etishga kirishdi

Gar Navoiydan Ado she‘rini o‘tkazsa ne tong,
Shoh Umar afzalmu yo Sulton Husayn Boyqaro».

Ushbu baytni romanning bu o‘rnida keltirilgani asar muallifining o‘z ixtiyorida, lekin tarixiy haqiqat bo‘yicha bu misralar Ado tarafidan bitilgan bir g‘azalning matla qismidir. Asarning to‘liq matni quyidagicha:

Kelding, ey qosid, bo‘lub sen Hudhudi shahri Sabo,
Marhabo, ey payki farruxfol oshiq, marhabo.

Xoma shaq o‘lgan til ila ne so‘zum aylar bayon,
Elt o‘zumni, noma etmas hech arzi muddao.

Ul quyosh yuz hajridin bir kecha hargiz ko‘r madim,
Subh yanglig‘kim, emas pirohani sabrim qabo.

³⁰ Farg‘ona tarixi / Ibrat («Meros» turkumi) – T., Kamalak, 1991 – 291-bet

Lutf etib bemor ko‘zlar boqishidin, ki kutar,
Notavon ko‘nglumga quvvatsen, ey mujgonaso.

Men azaldin ishqin ettim ixtiyor-u bilmadim,
Intihosiz ibtido erkan bu dardi bedavo.

Yor javr-u zulmidin ko‘b g‘am yebon sen ozmagil,
Ey ko‘ngul zindadur andin jafosindin vafo.

Zavraqi baxtim tabohi o‘lmay oxir naylasun,
Men g‘ariqi ishq, ul begonalarga oshno.

Yo‘qturur inson taraqqi-yu tanazzuldin biri,
Yer-u ko‘kni to yaratti xoliqi arz-u samo.

Gar Navoiydin Ado she‘rini o‘tkazsa ne tong,
Shoh Umar afzalmu yo Sulton Husayn Boyqaro.³¹

Afsuski, mazkur g‘azalning oxirgi bayti haqida sobiq sovet davri adabiyotshunosligida noto‘g‘ri talqinlar bo‘lgan. Xususan, akademik A.Qayumov «Qo‘qon adabiy muhiti» kitobida shunday yozadi: «Umarxon boshliq saroy shoirlari XIX asr birinchi choragidagi Qo‘qon adabiy muhitini Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy yashagan davrdagi XV asr Hirot adabiy muhitiga monand qilib tasvirlar edilar. Shuning uchun ham malikush shuaro Ado o‘zining bir g‘azalida Gar Navoiydin Ado she‘rini o‘tkazsa ne tong, Shoh Umar afzalmu yo Sulton Husayn Boyqaro, – deyishgacha borib yetgan edi³²«. Olim ushbu baytlarni faxriya usulida yozilganini umuman inobatga olmaydi. Buni faqat shoirning Amir Umarxonga maddohlik qilgani deb biladi va shunday uqtiradi.

³¹ ToshDSHI huzuridagi “Sharq qo‘lyozmalari” markazi 7510 qo‘lyozma, 121b-sahifa

³² Qayumov A. “Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII – XIX asrlar)”, T.: “Fan” nashriyoti, 1961. 63-bet.

Mustaqillik davri adabiyotshunosligida ham yuqoridagi kabi fikrlar saqlanib qolgani bizni taajublantiradi. Erkin Xudoyberdiyevning «Adabiyotshunoslikka kirish» kitobida o'qiydiz: «Buxoro amiriga josuslik qilish bilan shug'ullangan shayxulislom Sultonxonto'ra Ahroriy (Ado) o'zini Navoiydan ham ustun qo'yadi. U Amiri (Umarxon) ni Boyqaro bilan tenglashtirgani uchun o'n ming tilla mukofot oladi³³». Bu ma'lumotlarni E.Xudoyberdiyev qaysi manbalarga tayanib yozganligi bizga noma'lum. Qaysi qo'lyozma yoki toshbosma asardan iqtibos olayotgani ko'rsatilmagan. Hatto «Tazkirayi Qayumiy»da yuqoridagi bayt keltirilgan va unda ham «Qo'qon adabiy muhiti»dagi kabi maddohlik o'laroq baholangan, lekin Xudoyberdiyevdek Ado o'zini Navoiydan ustun qo'ydi, maddohligi uchun falon miqdorda mukofot oldi, deyilmagan.

Bu xato o'z vaqtida to'g'rilandi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Aftondil Erkinovning maqolasida bayt yetarlicha tahlil qilingan va manbalar asosida Ado baytni faxriya asosida yozganligini isbotlangan.³⁴

Bu misralarda Ado ulug' Navoiyni kamsitishni xayoliga ham keltirmaydi. Balki faxriya usulida she'r yozar ekan, an'anaga muvofiq o'zini mashhur salafi bilan taqqoslamoqchi bo'ladi. Bu usul mumtoz adabiyot uchun yangilik emas. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, Alisher Navoiy ham o'zini shoir Sakkokiy bilan taqqoslab o'z davrida quyidagi satrlarni yaratgan edi:

Navoiy nazm aro tig'i zabanin surdi andoqkim,

Pichoq topmas uyattin o'zni o'lturmoqqa Sakkokiy.

«Mohlaroyim»da Amirning qiziqchisi qiliqlariga Sultonxon Adoning qah-qah urib kulishlari; ovdan keyin Sultonxon to'raga alohida chodir tikilishi; amir bilan birga taomlanishlari haqidagi o'rinlar ham o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi. Adoning g'azallariga Uvaysiy va Nodiraning ham muxlisigi ham romanda ko'rsatilgan. Bir o'rinda Uvaysiy Nodira bilan suhbatda Fazliy va Ado ajoyib g'azal yozganliklari, unga tan bermaslikning iloji yo'qligi, go'yo ikkala alloma hali odam yetmagan xazina ekanligi haqida to'liqinlanib so'zlaydi.

³³ Xudoyberdiyev E. «Adabiyotshunoslikka kirish», T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. 18-bet

³⁴ Batafsil ma'lumot uchuq qarang: Erkinov A. «Gar Navoiydin ado so'zini o'tkarsa...» yoki Ado Navoiydan ustun bo'lmoqchimi?, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2009-yil 6-son.

Asarlarini tinglagan sari mag'zi shirin tuyulaveradi, deydi. Nodira esa bunga javoban:

– Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q-da, bibi! – deydi.

Va xayolida quyidagilarni o'ylaydi: «Jahon otinning kuyunganicha bor. Mavlono Sultonxon to'ra ko'p vaqtini olampanoh huzurlarida o'tkazgan, xo'jakalonlik mansabi ila nom qozongan malikush-shuaro edi, u g'oyat pokiza, islom etagini mahkam tutgan, shu sababli olampanoh Amir Umarxonning ishongan kishisi edi. Ham forsiy, ham turkiyda qalam tebratar, ko'p sozandalar uning g'azallariga kuy bastalagan va xonandalar tinizmsiz xonish qilishar edi...» (130-bet).

Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida bir epizodik lavha bor. Mana o'sha holat³⁵:

Miryoqub kursini yaqinroq jildirdi, chiroyli bir chinayoqqa samovardan quyuvqina choy quygach, chinayoq likopchasiga ikkita konfet olib qo'ydi. So'ngra, qo'ynidan gazetga o'ralgan narsani olib, ocha boshladi.

– Nima u? – dedi to'ra. – Boya mahkamada aytgan narsangmi?

– Ha, to'rt xat forscha bayt ekan. Shahobiddin domlaga ko'rsatib edim, Umarxon zamonida qozi bo'lib o'tgan Ado degan bir shoirning bayti, o'z qo'li bilan yozilgan, deydi.

– Unday bo'lsa, ko'p ham eski narsa emas, – dedi to'ra qo'lyozmani olib turib. – Lekin chinakam mavlono Adoning xati bo'lsa, tabarruk narsa. Rahmat senga, Miryoqub.

To'ra yana ko'z oynagini kiydi.

– «Limuharririhu...» Chiroylik xat... Mavlono Ado shuncha xushxat ekanmi? Sharqda, islom Sharqida suratkashlik din tomonidan man qilingani uchun rivoj topmasdan, din tomonidan tarvij etilgan bu xattotlik san'ati yaxshi taraqqiy qilgan edi. Xo'p, qani... o'qib ko'raylik...

«Gul rangli ko'z yoshlari va sarg'aygan yuzlar ajib go'zal bo'ladilar, xuddi zar yurgizilgan yoqut kabi go'zal bo'ladilar. Sen agar bodom singari boshdan-oyoq

³⁵ Biroz qisqartirish bilan bermoqdamiz. – O'.M.

ko‘zdan iborat bo‘lsang, hech narsa ko‘rolmaysan, ammo sevgi surmasi ila ochilgan ko‘z ravshan bo‘ladi».

...

– Mavlono Adoning bu baytiga hech qayda duch kelmagan ekanmiz.

Bu jihatdan ham bu yozmaning qimmatini bor.

– Baytning ma‘nosi nima, to‘ra? To‘ra tushuntirib berdi.

– Go‘zal she‘r... Umuman, Umarxon, eslik podsho bo‘lgan edi. Mulla odam, o‘zi ham shoir. Vazirlari ham shoir edilar. Undan keyingilarning mazasi bo‘lmadi... Shahobiddin mudarris buning mavlono Adodan bo‘lganini qaydan bilgan bo‘lsa?

– Tagida qozining muhri bor, deydi. O‘sha mavlono Ado ekan...

– E, darvoqe bunda muhr ham bor... shoshma... ha, mana, mana: «Qozi Abdillatif... Sayyid al-muslumin Amir Umar»... Chinakam, bu xat Umarxon davrining asari ekani ma‘lum bo‘ldi. Ammo buni yozgan Ado bo‘lmasa kerak. Mavlono Adoning nomi Sultonxon bo‘lsa kerak... Men o‘qib edim. Abdillatif emas. Shahobiddin xato qilibdi.

Sizning domlalarinigiz munaqa narsalarni yaxshi bilishmaydi...

– Men bilmadim, to‘ra. Shahobiddin maxsum shunday dedilar».³⁶

Rus to‘rasining Adoga ijodiga qiziqishi, albatta, yaxshi holat. Ammo bu badiiy asar. Demak, roman muallifi Cho‘lpon Sultonxo‘ja Adoning hayoti va ijodi bilan tanish bo‘lgan. «Mavlono Adoning bu baytiga hech qayda duch kelmagan ekanmiz»dan esa muallif shoirning g‘azal va ruboiylarini, umuman, asarlarini o‘qiganligi bilinadi.

Ado haqida XX asrdagi adabiy muhit vakillari suhbatlaridan ham bilib olsa bo‘ladi. Said Ahmadning «Topganlarim va yo‘qotganlarim» kitobidagi «Nazm chorraxasidan reportaj» nomli G‘.G‘ulomga bag‘ishlangan xotirasida o‘qiymiz: «Bu payt Boqiy domla Umarxon saroyidagi shuaroning peshqadam shoiri Ado to‘g‘risida, uning «Ado qaddini dol etmish» satri bilan tugaydigan to‘rtligi

³⁶ Abdulhamid Cho‘lpon, Asarlar. 4 jildlik J. II / Cho‘lpon – Qayta nashr; – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 145-bet.

xususida koʻzlarini yumib gapirayotgan edilar³⁷«. Bu misra toʻrtlik oxiri emas, balki «etmish» radifli gʻazalning soʻnggi baytidan olingan. Olim Sharafiddinov tomonidan tuzilgan «Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»da mana shu oxirgi bayt tushib qolgan. Shuningdek, soʻzlayotgan shaxs Boqiy emas, Nasriddin Bokiy boʻlishi kerak. Gʻafur Gʻulom, Habibiy, Bokiy va bir qancha zahmatkash olim va shoirlar Navoiy asarlarini oʻrganish boʻyicha tuzilgan komissiyaning aʼzosi edilar. Ularning alohida doʻstligi, ulfatchiligi ham bor edi.

«Umarxon saroyidagi shuaroning peshqadami Ado toʻgʻrisida», uning asari haqida fikrlarini bir joyga jamlagan holda «koʻz yumib» soʻzlayotgan Bokiy domla orqali Sultonxoʻja Ado ijodiga qiziqish boʻlganini anglaymiz.

Uning «peshqadam»ligini esa «Fargʻona tarixi»dagi ushbu misol quyidagicha sharhlaydi: «Ul asrda shoirlik rivojda boʻlub, shuarolar koʻpaygan ekanlar. Bulardan Xotif, Mashrab, Fitrat, Adoiy, Akmalxon toʻra, Namangandan Mavlono Fazliy va shoiralardan ham necha adad fozila xotunlar bor ekan³⁸».

A.Ismoilning «Jinlar bazmi» qissasida ham Sultonxoʻja Ado obrazi uchraydi.³⁹ Qissa haqida qisqacha maʼlumot shunday: Asar Abdulla Qodiriy umrining soʻnggi yillari, uning qamalishi bilan bogʻliq voqealarga bagʻishlangan. Syujet ham shuning ustiga qurilgan. Yozuvchi Qodiriyning «Amir Umarxon kanizi» nomli asar yozmoqchi boʻlganini, qator faktlar toʻplaganini qissaga mohirlik bilan kiritgan. Taʼbir joiz boʻlsa, Qodiriy tilidan «Amir Umarxon kanizi»ni yozgan.

Ushbu qissada ham «Mohlaroyim», «Davr Nodirasi» asarlarida boʻlganidek, Sultoxoʻja Ado amirga yaqin aʼyonlar qatorida tasvirlanadi. Ulardan farqli ravishda esa asarning rivojlanishida Ado Amir Umarxonga qaynота boʻladi.

Asar bayon qilishicha, Amir Umaron Mohlaroyim ustiga, Sayyid Gʻozixoʻjaning qizi Oyposhshaga uylanadi. Mohlaroyim kundoshli balosini Oyposhshaga ham bildirib qoʻyish maqsadida Amir Umarxonga uchinchi xotin qidirishga tushadi. Yani: «Sayddan sayyodga aylandi bu ishda haramning toʻngʻich

³⁷ Said Ahmad. «Topganlarim va yoʻqotganlarim»: Xotiralar. Adabiy oʻylar. T.: «Sharq» NMAK bosh tahririyati, 2008. 29-bet.

³⁸ Fargʻona tarixi / Ibrat («Meros» turkumi) – T., Kamalak, 1991. 289-bet

³⁹ Asarning www.ziyouz.com internet saytiga joylashtirilgan elektron shaklidan foydalandik.

bekasi. Oyposhsha Mohlaroyimdek bekning qizi emasa-da, martabada yuqoriroq «xo‘jaqizlardan» – poshshalardan edi. «Oqsuyaklikda» undan ortiq nima bo‘lishi mumkin – xo‘jalarga o‘xshab xalifalar avlodidan emas, Payg‘ambarimizning urug‘laridan bo‘lgan sayid yo to‘ra qizi. Haram atrofida kim ko‘p – g‘addor kampirlar. Bulardan ikkitasini ishga solgan edi, qidirib-qidirib urug‘iga «qoracha» zinhor aralashmagan Eshon Sulton Xojai-kalonning ismat pardasi ortida o‘tirgan qizini topishdi. Ham ota, ham ona tomonidan sayidlikning ipak tolasidan yaralgan bu ma’suma - ota tarafidan Ahroriy, ona tomonidan Mahdumiy A’zamiy shajara samari bo‘lib, husni-latofatda oydan boj olar edi. Ana o‘sha sayidaning ta’rifini Amirul-muslimiynning qulog‘iga yetkazish payidan bo‘ldi haramning to‘ng‘ich bekasi» (103-bet). Ta’rifi keltirilgan qizning ismi – Zubayda poshsha. Asarda aytilgandek, u Eshon Sultonxon to‘raning farzandi.

Bu vaqtlarda sayidlardan biri Mahmudxon to‘ra O‘ratepaga hokim bo‘lish istagida deyarli har kuni Amir Umarxonning huzuri oliylariga qatnardi. Oraga otinchalarning ulug‘ini solib, Sayid Mahmudning ayoli orqali uning O‘ratepa hokimligiga bo‘lgan ishtiyoqi Eshon Sultonxon to‘raning bokira qizini Amiral-muslimiyn nikohiga olib berish orqali hal bo‘lishi yotig‘i bilan yetkazildi. Bu ishlarning boshida, albatta, Mohlaroyim turar edi.

Xon huzuriga navbatdagi kelishida Sayid Mahmudxon to‘ra o‘zining tez-tez va past ohangda gapirishi bilan Amiral-musliminning Payg‘ambarimiz xonadoniga ulanishi ahamiyatini, bu dunyongizni Parvardigorimiz bekam-u ko‘st berdi, endi narigi dunyoni ham Tangrimizning suyukli arzandalaridan bo‘lmoqchi ekansiz, buning ham tadorigini ko‘rib qo‘ygan ma’qul, qabilida ta’rif-u tavsif etdi. U juda sekin gapirardi, go‘yo suhbatdoshi bilan sir bo‘lishgandek tuyulardi. «Boshqa odamga aytmas edim-u, biroq sizga...» degandek. Sayid Mahmudxon to‘ra so‘zida davom etar ekan, boshqa yondan Amirul-musliminning rutbasiga ushbu aloqaning ham omili, ham maqsadi muvofiqiligini aytadi.

Bog‘da o‘sgan eng chiroyli gulni bog‘bon chakkasiga taqishini, o‘sha gulning shabnamidagi yaltiragan nur osmonning yagona quyoshiga (Amir Umarxonni nazarda tutyapti – O‘.M.) tobe’ligini aytadi. Xullas, sayid Mahmudxon

to‘ra shohga u deb-bu deb o‘sha qizni olishga ko‘ndiradi. Bu holat asarda quyidagi bayt bilan chiroyli izohlanadi.

Agarda bo magar ham juftsozi,
Az u farzand zoyad koshki nom.

Ya’ni:

Agar bilan magarni juft qursang,
Undan koshki ismli farzand tug‘ilar.

Shoir bilan bog‘liq tasvirlar xuddi yerdan to‘laroq ko‘rinish beradi. Chunki xalqimizda hozirgacha saqlanayotgan taomilga ko‘ra sayidlar qorachaga qiz bermaydi. Shu bois Sultonxon to‘ra ham Amir Umarxonga qizini berishdan bosh tortadi.

Qizi Zubaydaga shohdan sovchi bo‘lib kelgan Sayid Mahmudxon to‘raga «ming bo‘ladimi, yuz mingmi, qorachaga beradigan qizim yo‘q» deya javob beradi. Ammo bu «yo‘q»larning bir kuni oxiri bo‘lishini sezib turadi. Baribir, kun kelib qizini Amir Umarxonga berishga majbur bo‘ladi.

E’tibor beradigan bo‘lsak, Sultonxonto‘ra Ado sanab o‘tilgan asarlarda badiiy obraz (tarixiy shaxs) sifatida epizodik holda tasvir etilsa-da, ana shu kichik o‘rinlarda uning o‘ziga xosligi yetarlicha ko‘rsatilgan. Xo‘jakalonligi, shoirligi, olimligi, xulq-atvori yoritilgan. Bu ham Adoning Qo‘qon adabiy muhitidagi iste’dodli ijodkorlardan biri ekanini isbotlaydi.

III BOB. SULTONXO‘JA ADO IJODIDA MUMTOZ ADABIYOT AN‘ANLARINING DAVOM ETTIRILISHI

1-fasl. Ado g‘azallarining badiiy xususiyatlari

Shoir ijodida g‘azal janrining o‘rni alohida. G‘azallarining badiiy qimmatini va ma‘naviy ahamiyatini ularni tadqiq etish, sharhlashga arzigulikdir. P. Qayyumiyning «Tazkirayi Qayyumiy» kitobida keltirilgan quyidagi asar haqida ham shularni aytish mumkin.

Qomatingdek yo‘qturur ashjor gulistondin biri,
Mandek ermas bulbul-u qumri-yu nolondin biri.

Gulistondagi daraxtlardan birortasining qomati sening qomatingdek emas, gulga oshiq bulbul-u qumrining va boshqa nolakorlarning oh-u zori mening nolamdek, tavbamdek, tazarruyimdek emas, deya boshlangan ushbu g‘azal matlasida va boshqa baytlarda ham shoir tanosub san‘atidan ustalik bilan foydalangan. Shuningdek, bayt o‘quvchini «guliston», «ashjor», «bulbul-u qumri»lar ila g‘azal bo‘stoniga boshlaydi. Beixtiyor gulzordan zavq-u shavq, ma‘naviy ozuqa olish istagi ham tengi yo‘q sarv qomatli yor yana qanday sifatlar egaligiga qiziqish keyingi misralarni hijjalashga chorlaydi.

Shaq kamonlik mundaq etma zulm etib, ey kiprik o‘q,
O‘tdi ko‘ksumdin qadalmay shuncha paykondin biri.

Mana, oshiq o‘z holini mahlubiga arz etishni boshlamoqda. Ya‘ni, ey, shaq (yoruq) kamonlik, kipriklari o‘q bo‘lgan, sen menga bunchalar jabr etma, otgan paykonlaringdan birortasi ham ko‘ksimda turib qolgani yo‘q, balki hammasi bag‘rimni pora etib qalbinga o‘tdi, deya ma‘shuqqa zorlanmoqda. Mumtoz adabiyotda qoshning kamonga, kiprikning o‘q-yoyga o‘xshatilishi an‘anaviy hodisa. Demak, Adoni ado qilayotgan holatning avvali yorning ko‘zi-yu qoshi. Nega aynan qosh-u, ko‘z. Tasavvufda orifning amallarni sustkashlik bilan bajarishi va unga basirat nazari bilan boqmasligi nayza, paykonning qalbga qadalishi bilan ifodalanadi.

Gah sani qotil ko‘zung goh xanjare mujgon budir
Bulki bir jon hech qutulmas bo‘lsa ming jondin biri.

Sening qotil ko‘zing, xanjar kabi kipriklaring ishi shu ekan, menim bir jonim-ku bitta, agar mingta jon bo‘lsa-da, qutula olmaydi. Shunisi ham borki, ba‘zi qalblarga paykonlar yetib bormaydi. Ularning ko‘ksilarida qadalib qoladi. Bu go‘yoki, hadislardagi yomg‘ir qabul qilmas toshloq yerlarga o‘xshaydi.

Noz tamkini xiroming ko‘rmay o‘ldum, ey sanam,
Chiqmadi ko‘nglumdin oxir buncha paykondin biri.

Nozing qattiqligi sabab nozanin yurishing ko‘rolmadim, ey sanam, shu sabab ko‘nglimga qadab qo‘ygan paykonlaring chiqib ketmadi. Albatta, shunday bo‘ladi. Orif, obid o‘z holini bildi: ishqida kamchiliklar sezdi-yu, lekin holatini o‘nglashga kuchi yetmayotir. Lekin yorga muhabbati kuchli. Shu sabab, mahbubining o‘zidan muhabbat yo‘lini oson etishini so‘rashda g‘azalning umumiy ma’nosi bor.

Bazm oxir bo‘ldi-yu, maxmurlikdin chiqmading,
Bizga hargiz yetmadi yuz jom davrondin biri.

Bazm oxiriga yetsa-da, xumorlikdan chiqmading. Bizga esa yuz qadahning birortasi ham yetib kelmadi. Mastlik deganda, ishqning chulg‘ab olishi, botiniy va zohiriy sifatlar, ma’rifat sarxushligiga g‘arq bo‘lish nazarda tutiladi. Oshiq shuni xohlaydi. Na qilsinki, xumor qiluvchiga loyiq bo‘lishga harakati bor, xolos. Albatta, shuning o‘zi-da hammada ham topilavermaydigan sifat. Ya’ni, qumri-yu bulbul nolishi unikidek emas. Lekin may uchun, mastlik uchun bu kamlik qiladi.

Banda bo‘lmay naylasin qumri sanga, ey sarv qad,
Qomatingga yo‘q barobar sarv bo‘stondin biri.

Avvalgi misralarda, yordan najot kutar ekan, shoir endi yana matla ma’nosiga qaytadi. Bu xuddi ikki salovat o‘rtasidagi duo qabul, qoidasiga mansubdek. U: «Ey sarv qadli yorim, bo‘ston daraxtlaridan birortasi seningdek emas. Shu bois qumrining banda bo‘lmay iloji yo‘q», deydi.

Bosh-ayoq munqor o‘lubsan nay kabi, ammo na sud ,
Ey Ado, ul shoh eshitmas yuz ming afg‘ondin biri.

Boshdan oyog‘ingacha nay misol pora-pora bo‘libsana, ammo bu foydasizki, yor yuz ming afg‘oningdan birini ham eshitmas.

Shoir asarlari badiiy tasvir va ifoda vositalariga, mumtoz adabiyotning malohati hisoblangan turli she'riy san'atlarga boy. G'azallarida qo'llanilgan so'zlar, ularning ostidagi fikrlarni ochib berishda foydalanilgan she'riy shakllar Adoning adabiyotimiz tarixidagi o'rganilishi kerak bo'lgan ijodkorlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

She'riy san'atlar asarni yanada o'qishli, ta'sirchan, bejirim qiladi, ularga mo'jizaviylik bag'ishlaydi. Misollarga to'xtalamiz.

Azal naqqoshi tasvir aylamakka safhayi husnung,

Ko'zini kunjida ze nuqtasida turfa hol etmish

baytining ikkinchi misrasida kitobot – harfiy san'atdan Ado nihoyatda ustalik bilan foydalangan. Ya'ni «Azal naqqoshi – Xudo husning sahifasini, yuzingni tasvirlayotganda senga alohida go'zallik bergan, shuningdek, ko'zingning bir chetidagi xol seni ko'rganlarni turli holatga tushiradi yoki safhayi husnungni ko'zing chetidagi xol turfa hol aylab turadi – o'zingga nihoyatda yarashib turadi». Ma'lumki, «ko'z» so'zi arab alifbosida كوز shaklida yoziladi. Ushbu so'zdagi «ze»ning nuqtasi xolga o'xshatilmoqda.

Xuddi shu g'azalning boshqa bir o'rnida shoir «Qazo bir oy boshida qosidan ikki hilol etmish» deydi. Bu yerda «qof» harfi bilan bog'liq kitobot san'atidan foydalanilgan. Demak, ق harfidan ikkita «oy» chiqadi. Ya'ni «qof»ning o'ng yuqori qismidagi yumaloq qismi badr – o'n to'rt kechalik to'lin oy bo'lsa, qolgan qismi (nuqtalardan tashqari) hilol – uch kunlik yangi oydir. Oy avval hilol shaklida bo'lib, keyin to'lishib boradi-da badr holiga o'tadi. Keyin yana ortiga qaytadi, kichrayadi. Bu esa to'xtovsiz davom etadi. G'azalning avvalgi misrasi bilan bog'lasak, yorning oyligi, bo'lganda ham hilol-u badr holiga o'tib turishidan «ajab yo'q husnidin gar yuz balo yog'dursa olamg'a».

Bu kabi serjilo bayt va misralarni o'qir ekanmiz, shoirga nisbatan o'z davrida «Ado mulki ma'nida sulton erur, Xiradmandi iqlimi Turon erur» deya berilgan yuqori baholarni bejiz bo'lmaganini anglaymiz. She'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati tanosub deb ataladi .

Adoning gʻazallarida ushbu sheʼriy sanʼat turining ham yaxshi namunalarini uchratamiz. «Biri» radifli gʻazalining bir necha baytlarida tanosub ishlatilgan. «Qomatingdek yoʻqturur ashjor gulistondin biri» misrasida ashjor va guliston; Mandek ermas bulbul-u qumri-yu nolondin biri»da bulbul, qumri; «Shaq kamonlik mundoq etma zulm etib, ey kiprik oʻq, Oʻtdi koʻksumdin qadalmay shuncha paykondin biri» baytida kamon, oʻq, paykon soʻzlari; «Gah sani qotil koʻzung goh xanjare mujgon budir»da koʻz va mujgon, qotil va xanjar; «Bazm oxir boʻldi-yu, maxmurlikdin chiqmading, Bizga hargiz yetmadi yuz jom davrondin biri» baytida bazm, maxmurlik, jom soʻzlari tanosubga misol boʻladi. Shunisi eʼtiborliki, Ado bir gʻazalning bir necha oʻrnida aynan tanosubdan mahorat bilan foydalana olgan. Uning «Ey koʻz, ayla mardumligʻ...» deb boshlanuvchi gʻazalida ham tanosub sanʼati namunasini uchratamiz: *Bogʻa kir ochib ul yuz, laʼlidin tabassum et, Gulni koʻnglini yuz chok, gʻuncha bagʻrini qon qil.* Mazkur baytda bogʻ, gul, gʻuncha soʻzlari bir oʻrinda keltirilmoqda. Maʼshuqa bogʻ ichra sayr etganda gulning koʻnglini pora-pora etishi, gʻunchaning bagʻrini qon qilishi goʻzal tarzda tasvirlanmoqda.

«Koʻrung» radifli gʻazalida ham xona, shayx; bogʻ, sarv, gʻuncha; pista-yu bodom, olma-yu anor; qosh, kiprik soʻzlari tanosub hosil boʻlishiga zamin yaratib bergan hamda asarning oʻqishli boʻlishini taʼminlagan.

Gʻazalning toʻla tahlili bilan tanishib, bunga yanada ishonch hosil qilish mumkin.

Karkning shoxi kibi misvok-u dastorin koʻrung,

Bul quruq zohidni navbat birla pindorin koʻrung.

Karkidonning shoxiga oʻxshaydigan misvoki va sallasini koʻring, bu quruq zohid – taqvodorning navbatma-navbat takabburlik qilishini (yoki nogʻoradek shishgan takabburligini⁴⁰) koʻring.

Bu baytda zohid – taqvodor odamlar tanqid qilingan, lekin ularning ishlari, ibodatlari mutlaqo xato ekan, deya tushunmaslik lozim. Gap shundaki, zohid kishining Allohga muhabbati, diniy amallari zohirdir. Yaʼni roʻza tutish, namoz

⁴⁰ Navbat soʻzining nogʻora maʼnosi ham bor.

o‘qish kabi ibodatlari ko‘rinib turadi. U boshqalarga ham ma’lum bo‘ladi. Lekin kishining taqvo-yu tazarrusi avvalo qalbda bo‘lmoqligini tasavvuf ta’kidlaydi, lekin bu farz-u vojib amallarni qilmaslik mumkin, degani emas. Ta’bir joiz bo‘lsa, badan ham, qalb ham ibodatlarni bir xil bajarmog‘i lozim. Tasavvuf adabiyotida, zohid shariatning zohirini ushlab, botinidan bexabar bo‘lgani uchun ham tanqidga nishon bo‘ladi. Alisher Navoiy ham «Zohid, senga hur-u, menga jonona kerak» misrasida zohidning murodi jannat hurlari, o‘zining orzusi Yor – Alloh vasli ekanini aytadi. Sultonxo‘ja Ado: «Kulma, zohid, osiy ummatlarg‘a toat yuzidin, O‘n kishidin o‘zgasi umid-vahim ustindadir», – deydi.

Xonaqoda ko‘purib halqi nishora to‘ldurib,

Jahriya shayxini xush dandoni minshorin ko‘rung.

Jahriya shayxining xonaqoda maqtanchoqlik qilib, yoyiq halqumini to‘ldirib, arradek tishlarini-da zikrdan mast holga kelishi ko‘rsatib turganini ko‘ring.

G‘azalning birinchi baytida zohidning ishi «qoralangan» bo‘lsa, bu yerda jahriya tariqatidagi shayxning viridlari haqida so‘z bormoqda. Til zikrining ikki turi – jahriy va mahfiysi borligi ilm ahliga ma’lum. Ovoz chiqarib, boshqalar ham eshitadigan darajada hamd-sano o‘qish jahriya asoslangan tariqatlardagi vazifalardir. Bunda ovoz baland bo‘lgani uchun ibodatni boshqalar ham eshitadi. Xuddi shu o‘rinda riyo bo‘lish ehtimoli bor, deydi ba’zi fozillar. Ammo bu ham mutlqo mumkin emas ekan-da, deyishga olib bormasligi zarur. Mahfiy til zikrlarida esa, ovoz balandligi ko‘pi bilan solikning o‘zi eshitadigan darajada bo‘ladi. Albatta, bu holda riyo yo‘qdir. Shoir mana shu qoidadan kelib chiqqan bo‘lsa kerak. Adoning naqshbandiya tariqatiga amal qilganini ham yodda tutish kerak.

Ikkinchi bayt bilan uchinchi bayt orasida bog‘liqlik ko‘rmadik. Ya’ni g‘azalda ma’no jihatdan tadrijiylik shu yerda buzilgandek. Bizningcha, bog‘lanish nuqtasi hisoblangan bayt kotiblar tomonidan qandaydir sabablar bilan tushirib qoldirilgan bo‘lsa kerak.

Bog‘a ne nisbat gulandomimg‘a sarv-u g‘unchaning,

Eshitib guftorini, siz gohi raftorin ko‘rung.

Bog‘da gulandomimga sarv daraxti va g‘unchani tenglashtirmang, siz uning so‘zlarini eshiting, yurishini ko‘ring.

Oshiqning qaddi-qomati kelishgan, nozik badan yoriga hech yerda teng keladigani yo‘qdir. Xushqomat sarvni qo‘ying-u, yorining yurishini ko‘ring; go‘zal g‘unchani qo‘ying-u, ul ma‘shuqaning so‘zlashiga e‘tibor bering. Shunda yor hammadan a‘lo ekanini anglaysiz.

Mazkur baytlar tasavvufiy ekanligi ma‘lum bo‘lib turibdi. Agar baytdan insoniy muhabbat ma‘nosi tushunilsa, bu xatodir. Chunki musulmon er o‘z dildorini boshqalarga ko‘rsattirib, so‘zini eshittirib qo‘yishni or deb biladi. Qolaversa, Sultonxon Ado shayxulislom, xo‘jakalon – fiqh ilmining faxriysidir.

Nahli qaddin bog‘boni sun‘ payvand aylamish,

Pista-yu bodom birla olma-yu norin ko‘rung.

Qaddining niholini bog‘bon shunday payvand qildiki, bir daraxtda pista-yu bodom, olma-yu anorni ko‘ring.

Shoir bu baytda yorida topilgan eng ayxshi sifatlar, uning o‘ziga xosliklari asli xilqatida borligi haqida tanosub san‘ati orqali so‘zlamogda.

Qosh, kiprikni kamand-u tig‘ etar jon qasdig‘a,

Ul sanamni nargisi, joduyi ayyorin ko‘rung.

Jon qasdi uchun qoshini kamon, kipriklarini o‘q qiladi. Yorning nargisi, ya‘ni ko‘zini, ko‘z bo‘lganda ham ayyor jodusini ko‘ring.

Qoshning yoyga, kiprikning paykonga o‘xshatilishi mumtoz adabiyotda an‘anaviy hodisa. Guli ko‘zga o‘xshaydigan nargis (bo‘tako‘z)ning adabiyotda ko‘z ma‘nosida ishlatilishi ham ma‘lum. Shoir an‘naviylikdan unumli foydalanib, g‘azal ma‘nosini yanada boyitgan. Tasavvufda esa, ko‘z – narsalarda Haqni mushohada qilish va bu mushohadakorlik layoqati bashariy sifat, deb ta‘bir qilinadi. Ya‘ni solik nazaridan biror narsani chetda qoldirmaydigan, foydali va zararli narsalarni nazorat qilib turuvchi, uning barcha yaxshi va yomon ahvoliga taalluqli bashariy sifatlar. Solik bu bilan har narsada Allohning ulug‘ xoliqlik sifatini topadi.

Notavonlig‘din agarchi kiprigin aylar aso,

Qon ichar parhez etmay chashm-bemorin ko‘rung.

U notavonlikdan kiprigini hassa qilib olgan, parhezsiz bo‘lgani uchun ko‘z bemorligidan qon ichadi.

Kiprik nayza, o‘q va kamonning uchlariga tashbih qilinadi va ma’shuqning noz-u karashmasi bilan oshiq ko‘ksiga sanchiladi. Istilohda solikning hol va martabasiga hijob bo‘lganni aytadilar. Orifning amallarni sustkashlik bilan bajarishi va unga basirat nazari bilan boqmasligidir. Demak, oshiq o‘zining ahvolidan hijolatda. U atrofga to‘laligicha basirat nazari bilan qaray olmayotganidan uyalmoqda. Yor kiprigi uzunligi turli o‘xshatishlar bilan ifodalanadi, lekin uning asoga o‘xshatilishi yangilik, bizningcha.

Husnining boricha zulm etmas, tarahhum aylamang,

Siz Ado holig‘a boqmang, nozanin yorin ko‘rung.

Siz menga rahm aylamang, chunki yor hali husniga munosib zulm qilmadi. Siz Adoning holiga emas, uning nozanin yoriga qarang.

Husni ta’lil san’atiga ustiga qurilgan ushbu baytda shoir o‘zining achinarli holiga boshqalarning rahm etmasligini, aftodahol ekaniga yorining go‘zalligini ko‘rib xulosa chiqarib olish mumkinligi haqida so‘zlamog‘da.

Shoirning «Qil» radifli g‘azalida ham uning tasavvufiy mazmun, she’riy san’atlarga boylikni ko‘rish mumkin. Asar tahlilida buni to‘laroq anglashimiz mumkin. She’r quyidagi matla bilan boshlanadi:

Ey ko‘z ayla mardumlug‘ ul sanamni mehmon qil,

Vay shararfishon ashkim yo‘liga charog‘on qil.

Ey ko‘z, kel bir odamgarchilik bilan ul yorni mehmon qil. Uning kelishiga ko‘z yoshim nuridan yo‘lni charog‘on qil.

Tasavvufda chashm, ko‘z narsa va holatlarda Allohning qudratini mushohada qilish. Bu mushohadakorlik layoqati bashariy sifat deb ta’bir qilinadi. Ya’ni solik nazaridan biror narsani chetda qoldirmaydigan, foydali va zararli narsalarni nazorat qilib turuvchi, uning barcha yaxshi va yomon ahvoliga taalluqli bashariy sifatlar. Misraning ma’nosiga shu jihatdan yondashadigan bo‘lsak, inson

Allohning xoliqlik sifatini ko‘rishi, anglashi uchun Allohning o‘zidan yordam so‘ramoqda.

Alisher Navoiyning «Qilg‘il» radifli mashhur g‘azali ilk misrasida ham ko‘zning «mardumliq» qilishga chaqiriq bor. Demak, shoir ulug‘ Navoiydan ilhomlangan, mumtoz adabiyot an‘analarini davom ettirgan deb aytsak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Ko‘nglum emdi chun boshqa tushdi ishq savdosi,
Boshqa bor-u yo‘qdin kech naqdi dog‘i somon qil.

Ko‘nglim, boshga endi ishq savdosi tushdi, shu bois boshqa har qanday ishingdan kechginda, darhol yana o‘zingda muhabbat qiyinchiliklariga iloj top.

Mazkur baytda boshqa so‘zidagi jo‘nalish kelishigi «qa» shaklida ishlatilgan. Shu bois ikki misradagi boshqa so‘zi bilan o‘zaro omonimlik hosilgan qilgan.

Muhabbat qiyinchiliklari shundaki, ma‘shuq oshiqni har ko‘yga solishi, uni ishq yo‘lida sarson-u sargardon etishi, turli balo-ofatlar bilan sinovga olishi mumkin. Ana shu sinovlar qoshida oshiq o‘zini yo‘qotmasligi, to‘siqlarni mardona yengib o‘tishi zarur.

Bu qiyinchilklardan bir ko‘rinish sifatida keyingi baytlarda keltiriladi. Unda ishqning turfa sinovlari haqida so‘z boradi. Xususan, oshiq yordan «muhabbatda kuydirib bag‘rimni kabob etma» deydi.

Bog‘a kir ochib ul yuz, la‘lidin tabassum et,
Gulni ko‘nglini yuz chok, g‘uncha bag‘rini qon qil.

Bog‘ga yuzingni yashnatib kirgin-da, la‘li lablaring bilan tabassum qil. Bu ishing bilan gulning ko‘nglini pora-pora, g‘unchaning bag‘rini qon etgin.

Bu tasvir mumtoz adabiyotda an‘anaviydir. Ya‘ni bog‘da gulning ochilishi (yuz chok) yorga qilgan hasadning qurboni bo‘lishidan, g‘unchaning qizilligi mahbub lablarini ko‘rib «bag‘ri qon» bo‘lishidandir. Tasavvufda labi la‘l – ma‘shuq kalomining botiniy ma‘nosi, ahvolning sofligi va nozikligi hamda husn-u jamol go‘zalliklari zikrini qamrab olgan so‘zlar.

Hirs ozdin o‘tg‘il, rizq ko‘b-u ozi bas,

Ey ko'ngul o'lub qoni mushkilini oson qil.

Ey ko'ngil, bir narsaga qattiq berilishdan o'zingni tiy, ochko'z bo'lma, rizq ozmi-ko'pmi bor. Boriga qanoat qilib mushkulni oson qil.

Yordan bo'layotgan muruvvatni oz-ko'p demay, uning biroz bo'lsa ham ehsoniga, lutf-u karamiga sazovor bo'lishning o'zi baxtdir. Shu bois bor mehrga qanoat qilib, u ila oshiqlik ishining mushkulotlarini oson qil.

In-u on demas oshiq xoh ko'y, xoh so'y,

Husn ichra yakto sen, har na bilganing on qil.

Oshiq qayda bo'lmasin, ko'chadami, qaysi tomonda, uning yorga turli iltimoslar qilishi to'g'ri emas. Yor husnda yagonami, demak, u bilganini qilsin. Zotan, Husn – eng mukammal kamolot va sifatga ega bo'lgan zotdirkim, u Haqdir. «Alloh go'zaldir va go'zallikni sevadi».

Keyingi baytlarda yana ko'zga murojaat qilinadi-da, uni qon yig'lashga buyuriladi. Ko'ngilga esa fig'on etish zarurligi topshiriladi. Bu yig'ilar, bu oh-u nolalar mahbuba uchundir. Uning beg'ubor va sof bo'lishi uchun «Tifli ashkidek jono ko'zlarim dabiston qil» ya'ni ko'z yosh tomchilarining bola bo'lib, ko'zning o'zi esa maktab bo'lishini xohlaydi shoir.

Zulfidin Ado har tun munchakim parishon sen,

Dudi ohini tarqat, ayri sunbuliston qil.

Ey Ado, yorning qora zulfidan sening holing parishon, shu bois yig'ilaring bilan achchiq ohlaringni chiqarib ol. Go'yoki ularni sunbulistondan judo qilgin.

Zulfning tasavvufda bir qancha ma'nolari bor. Jaloliy tajalli va tariqat mushkulotlari; yashirin mohiyatdirki, uni anglash va idrok qilishga hech kim qodir emas; vahdat martabasi va Alloh taoloning zotidirki, uning sir-sinoatiga yetmoq mumkin emas va hokazo. Sunbul esa qora rangli xushbo'y o'simlik.

Demak, oshiq o'zida bo'layotgan holatdan, ya'ni yorining (Allohning) unga ko'rsatayotgan marhamatlari – sinov-qiyinchiliklaridan rozi. Shuningdek, zulfning boshqa ma'nosidan kelib chiqsak, uning vahdat martabasi sir-sinoati oldida lol. Shuning uchun yig'lamoqni ixtiyor etgan. Bu orqali muhabbat izhorini aytmoqchi.

Sultonxo‘ja Ado she‘riyatda maktab yaratgan Lutfiy va Navoiy kabi daholarning tahsilini olgan. Shu bois ular kabi misralarning go‘zal va o‘qishli bo‘lishini ta‘minlash uchun turli xil she‘r san‘atlariga murojaat qilgan. O‘sha ulug‘ shoirlarga muhabbati cheksizligini Ado asarlarida ularning «talmeh» bo‘lgani orqali ham bilib olishimiz mumkin.

«Men Navoiyga ne dey chun fikri boshqardi aning» misrasi va mana bu bayt ham fikrimiz dalilidir.

Daftari she‘rim bu tun ko‘rdi Navoiy-yu dedi:

«Ey Ado, Lutfiy so‘zi yo toza devondurmi ul!»

Adoning Lutfiy va Navoiyga ergashishi shularning o‘zi bilan cheklanib qolmaydi, albatta. Devonida ularning g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari bor. Shuningdek, shoir Navoiy ruboiylaridan ilhomlanib, ular asosida kam uchraydigan janrlardan biri ruboiy-mustazodlar ham yozgan.

...Ko‘nglum emdi chun boshqa tushti ishq savdosi,

Boshqa **bor-u yo‘q**din kech naqdi dog‘i somon qil...

...Chu kulbam sori keldi yor dutorini soz aylab,

Quyosh oraz bila ul **qish** ekan orazni **yo**z aylab...

...**Yigitlikda** ko‘ngulni uzmagan men dilrabolardin,

Qariganda na deb ko‘ngul o‘zay mijgon asolardin.

Tazod san‘ati qatnashgan yuqoridagi baytlar ham Ado she‘rlarining badiiy tasvir va ifoda vositalariga boyligini ta‘minlab turibdi.

Shoirning «Kelding, ey qosid, bo‘lub sen Hudhudi shahri Sabo» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali Amir Umarxonning xuddi shu vazndagi boshqa bir g‘azaliga Sultonxo‘ja Ado tomonidan bitilgan tatabbudir. Tatabbu «ergashmoq», «izidan bormoq» ma‘nosini ifodalovchi so‘z bo‘lib, adabiyotshunoslikda ijodkorning boshqa shoir bilan bellashish musobaqalashish maqsadida uning biror asariga javob yozish usuli shu so‘z bilan ataladi⁴¹.

Amiriyning «Ey niholi...» deb boshlanuvchi g‘azaliga Vazir, Nola, Ma‘yus, Ramziy, Xotif, Behjat, Zohid, Kasratiy, Foniyy, Vahshiy, Gulxaniy, Mahzun,

⁴¹ Hojiahmedov A., Mumtoz badiiyat lug‘ati, T.: «Yangi asr avlodi», 2008. 136-bet.

Akmal, Muzmarlar ham tatabbu bog‘lagan. Adoning tatabbu-g‘azali to‘liq matni u bilan bog‘liq bahslar borligi tufayli dissertatsiyaning 2-bob 2-faslida keltirdik.

To‘qqiz baytli g‘azalda «sabo», «marhabo», «muddao», «qabo», «mujgonaso», «bedavo», «vafo», «oshno», «samo», «Boyqaro» so‘zlari bir-biriga qofiya bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi «alif» harfi «o» cho‘ziq unlisni ifodalab, aynan takrorlanib kelishi bilan raviiy vazifasini ham bajargan. Qofiyadosh so‘zlar hammasi raviiy bilan tugallanib, ulardan oldin qisqa unli tovushlar kelgani bois Adoning bu g‘azalidagi qofiyalar muqayyad qofiyalar hisoblanadi.

Ado mumtoz adabiyotning zabardast shoirlaridan Sa‘diy, Hofiz, Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy qatorida Lutfiyni ham ustoz sifatida e’tirof etib, uning she’rlarini muttasil mutolaa qilar, uning g‘azallariga o‘xshatmalar bitar, muxammaslar yozardi. Hozirda bizga ma’lum bo‘lishicha, u mavlono Lutfiyning to‘rtta g‘azaliga muxammas bog‘lagan.

Biz mazkur muxammaslarning nashr ettirilmaganini nazarda tutib, ularning birinchi va taxallusli bandlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ul og‘iz kim nuqtayi nun gumon derlar ani,
Yo adam mimidurur ko‘zdin nihon derlar ani,
Ruh yo‘q oshiq tanida ulki qon derlar ani,
Partavedur ul tabassumdinkim jon derlar ani,
Soyayi sarvingdurur ul hamki ravon derlar ani.

Hech kishi mumtoz o‘lmas ishqing tutmay sipos,
Ey Ado, qilg‘il muhabbat yo‘lig‘a o‘zdin qiyos,
Dardi ishq ermishki bordur munchalar sohib asos,
Lutfiyi gumnomni olamda qilg‘on ro‘shinos,
Dog‘i ishqingdurki davlatliq nishon derlar ani.

Izoh: mavlono Lutfiyning g‘azali olti baytdan iborat bo‘lsa-da, Ado uning bir baytini tushirib qoldirgan, jumladan:

Baxti sargashtimni ko‘rkim zulfi tegdi boshima,
Jon kamininda nechakim notavon derlar ani.

Subhidam esdi chamanda bir nafas jo‘sh etgali,
O‘z tutuni ohidek ul o‘tga hamdo‘sh etgali,
Oni ro‘kash aylab ammo o‘zi og‘o‘sh etgali,
Sunbulingni tong yeli torqatti gulpo‘sh etgali
Bexato Chin butlarini halqa dargo‘sh etgali.

Ey Ado, sendek qilib bezar jondin Lutfini,
Ko‘zi-bodom, og‘zi-pista ko‘rdi qondin Lutfini,
Qildi mahrumi tamosho bo‘stondin Lutfini,
Gul yangoqing nori bulbuldek fig‘ondin Lutfini,
Bir nafas imkon emaskim qo‘ysa xomo‘sh etgali.

Izoh: Mavlono Lutfiyning g‘azali besh baytdan iborat bo‘lib, Ado ularni to‘liq taxmirlashtirgan.

Ko‘nglum uyi, ey sarvi ravon, oyinang o‘lsun,
Sayr etgali ko‘ksun yarasi gulshaning o‘lsun,
Oshiq-tan, sen-ruhsany jonlar taning o‘lsun,
Jono, badaning jondiru jonlar taning o‘lsun,
Haq fazli aning hifzina pirohaning o‘lsun.

Ko‘zgudek Ado gardi manoling etagina,
Ka‘baya qoshingga nuqtayi xoling etagina,
Ozoki tegragehi xayoling etagina,
Lutfiy ali yetmas chu visoling etagina,
Xohi bu jamol oning xohi saning o‘lsun.

Izoh: Mavlono Lutfiy g‘azali besh baytdan iborat bo‘lib, Ado uni to‘la taxmirlashtirgan. Matnda farqlar bor.

Bir shom tilab erdi mani bazmigʻa dilbar,
Bir ilgida mino erdi, bir ilgida sogʻar,
Yorim kecha qoʻpti yana yuz noz qilib sar,
Hammomga azm aylagach ul shoʻxi sitamgar,
Hammom yuzi aksi bila boʻldi munavvar.

Hammom, Ado, demakim marmar toshidindur,
Bu masjidu mehrob egilma qoshidindur,
Doʻzax bila toʻfonni dema oʻz boshidindur,
Bu Lutfini ohini oʻtiyu koʻz yoshidindur,
Hammomni oʻt-u suvi tushmas anga bovar.

Izoh: Mavlono Lutfiyning gʻazali olti baytdan iborat boʻlsa-da, Ado uning beshtasini taxmirlashtirib, quyidagi baytni tushirib qoldirgan:

Ey koshki men boʻlgʻay edim olida xodim,
To vasl tuni boʻlgʻay edi bizga muyassar.

Keltirilgan misollardan ayon boʻladiki, Ado mavlono Lutfiyning gʻazallariga muxammaslar bogʻlab, malik ul-kalom shoirga nisbatan oʻzining ehtiromini ifodalagan, uning baytlaridagi mazmunlarni davom ettirgan. Shuni ham eslatish joizki, Fuzuliy ham, Amiriy va Ado ham malik ul-kalom mavlono Lutfiy gʻazallariga muxammaslar bogʻlash bilan zamondoshlari orasida mavlono Lutfiy gʻazallarini targʻib etish, ularni oʻrganishga daʼvat etish vazifasini ham oʻziga xos tarzda amalga oshirganlar. Bu esa mavlono Lutfiy sheʼriyatining asrlar osha barhayot boʻlishini taʼminlashning bir vositasi edi.

2-fasl. Ado ijodida ruboiy-mustazodlar

Sultonxo‘ja Ado ijodining o‘ziga xosligini belgilovchi jihatlardan yana biri uning ruboiy-mustazodlaridir. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ruboiy va mustazodlarning o‘rni beqiyos. Arab tilidan tarjima qilinganda «to‘rtlik» ma’nosini beruvchi ruboiy atamasi she’riyatning to‘rt misradan iborat va hazaj bahriga munosib vaznlarda yoziladigan shakli nomini bildiradi. Bu she’riy shaklda xilma-xil mavzulardagi lirik kechinmalar g‘oyat ixcham tarzda, shuning bilan birga, jozibali, ta’sirchanlik bilan yoziladi. Ularda falsafiy xulosalar yetakchilik qiladi.

Mustazod esa, «orttirilgan» ma’nosini ifodalab, she’rlarda har qaysi misradan so‘ng yana ayrim misra, aniqrog‘i, misraning birinchi va to‘rtinchi ruknlariga teng bo‘lgan yarim misrasi orttirilgan lirik she’r shaklining nomini biladiradi⁴².

Mustazod shaklini adabiyotimizga ilk bor olib kirgan Hofiz Xorazmiydir⁴³. Navoiy bu janrda fors-tojik she’riyatiga xos an’analar izidan bordi. Ma’lumki, ushbu shakldagi lirik she’rlar ham Navoiy davriga qadar hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod va hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod vaznlaridagina yaratilib kelgan. Shu tufayli shoir o‘z mustazodlarini ana shu ikki o‘lchov asosida bitdi.

Ne vo‘smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
Ne g‘azmzayi jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
Xurshid anga ko‘zgu

matlasi bilan boshlanadigan mustazodda yuqorida zikr etilgan har ikki vazndan foydalanilgan. Bu she’riy shakl ichida qofiyalanish ikkita bo‘ladi (sumansoy – magar, ey oy; jodu – ko‘zgu). Ba’zida undan ham ko‘p bo‘lishi mumkin. Ogahiy mustazodlari bunga misol bo‘ladi.

Adabiyot tarixida g‘azallarni mustazod shakliga solish ko‘p uchraydi. Xususan, Mashrabda ham shunday. Kichik lirik janr hisoblangan ruboiylarni

⁴² Hojiahmedov A., “Mumtoz badiiyat lug‘ati”, T.: “Yangi asr avlodi”, 2008. 67-b.

⁴³ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug‘ati – T.: “Akademnashr”, 2010-yil. 193-bet

mustazod qilish ham ba'zan kuzatiladi. Bu shoirning o'z ruboiylari bilan bog'liq gap.

Lekin boshqa bir ijodkorning to'rtligini ruboiy-mustazod qilish, bizningcha, yangi hodisadir. Shu jihatdan olib qaraganda, Ado mumtoz adabiyot tarixida novator shoirdir. Uning bu shakldagi asarlari talaygina. Hozirgi kunda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Sharq qo'lyozmalari markazida № 8280, № 4375, № 9014 raqamlar bilan qayd etilgan ruboiy-mustazodlari saqlanadi.

Ruboiy-mustazodlar Adoning qarindoshlaridan bo'lgan Naqibxon Tug'ral Ahroriy ijodida ham uchraydi.⁴⁴ Quyidagi ruboiy-mustazod ushbu shoirga tegishli.

Oyina ba bazmi dilkushoyi tu rasad,
ey jon, nigoh,
Ham shona ba zulfi mushksoyi tu rasad,
moro chi gunoh?
Mo xok shavemu surma manzur aftad,
murdem zi rashk,
Dil xun shavadu xino ba poy i tu rasad,
subhanalloh!

Adabiyotshunos O.Jo'raboyev ozarbayjonlik olimasi Jannat Nagiyeva va uning «Ozarboyjonda Navoiy» nomli tadqiqoti to'g'risidagi maqolasida quyidagilarni yozadi: «Kitobning ba'zi o'rinlarida muallif XIX asr o'zbek shoirlaridan Amiriy va Ado haqida ham to'xtaladi. U Amir Umarxon davridagi adabiyotga bo'lgan yuksak e'tibor, jumladan, Fuzuliy asarlarining nusxalaridan bir nechasi o'sha vaqtda ko'chirilgani va ular hozirda Ozarboyjon FA Qo'lyozmalar institutida saqlanishi haqida ma'lumot beradi. Yana shu fonddagi Sultonxon Ado Ahroriy tomonidan tartib berilgan bir manba haqida ham xabar beradi. Shunisi e'tiborliki, asosan, ruboiylar jamlangan bu nodir qo'lyozmada Navoiy va Fuzuliy ruboiylaridan bir nechasi Ado tarafidan ruboiy-mustazod qilingan ekan. Masalan, Navoiyning:

Soqiy, meni xor-xordin ayla xalos,
Kel, gul yuzung och, bahordin ayla xalos.

⁴⁴ Bu shoir ijodi tojikistonlik adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

dak subhidame.

Mazmuni: «Ado har yerda azizlar ruboiysini dard-u gʻam ila eshitdi va ularni oldi-yu kam fahm ila mustazod etdi. Ushbu ishda jurʻati harchand gustohlik boʻldi. Ammo haq subhidamda qalbiga fayz eshigini ochdi».

Qoʻlzoimalardagi ruboiy-mustazodlarning umumiy hajmi 500 dan ziyoddir.

Ado tomonidan mustazod etilgan ruboiylar Sharqning mashhur mutafakkirlari qalamiga mansub boʻlib, ulardagi turli falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-taʼlimiy fikrlar ifodalangan. Ado diqqatini oʻziga jalb qilgan «buyuk»lar va «aziz»lar Sharq adabiyotida oʻz ruboiylari bilan shuhrat qozongan Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud kabilar boʻlib, Ado ular yaratgan ruboiylarni mehr bilan toʻplagan, ulardagi katta falsafiy fikrlar va hikmatlardan estetik oziq olgan. Bu ruboiylarda ifodalangan fikrlar uning qarashlari bilan uygʻun boʻlgan va bu qarashlarni shakllantirgan ham. Ana shu uygʻunlik tufayli uning oʻzi ham bu ruboiylarga nimadir qoʻshish ishtiyoqida boʻlgan. Ana shu tarzda ruboiy-mustazodlar vujudga kelgan.

Ado zullisonayn shoir sifatida fors-tojik va oʻzbek tillarida yozilgan ruboiylarga baravar mustazod bogʻlaydi. Chunonchi, u Pahlavon Mahmudning ruboiysiga mana bu tarzda mustazod bogʻlaydi:

Dildor maro guft: «Charo gʻamgini?»

az roʻyi karam,

«Dar qaydi kadom dilbari shirini»,

bo dard-u alam,

Bar xestam-u oina ba dastash dodam,

az roʻyi karam,

Guftam, ki «Dar oina kiro mebini?»,

gufto, ki: «Xudam!»

Mazmuni:

Dedi yorim: «Yana nima gʻaming bor?»

latofat bilan,

«Xayoling band etdi qaysi goʻzal yor?»

chekasan alam,
Shu onda qo‘liga oyna tutdim,
karam yuzidan,
Dedim: «Oyinada kimning aksi bor?»
dedi u: «Bu – man!»

Ko‘rinib turibdiki, shoir o‘z usozlari ruboiylaridan mustazodlar yaratganda, she’rning mazmuniga zarracha xalaqit bermagan, aksincha ularning mazmunini yanada to‘liqroq ochishga intilgan.

Adoning tojikcha ruboiy-mustazodlari asosida Umar Xayyom to‘rtliklari ko‘p uchraydi.

Xayyoming

Aflok, ki chuz g‘am nafazoyand digar,
Binihand yake, to biraboyand digar;
Noomadagon agar binodand, ki mo
Az dahr chi mekasham, noyand digar

ruboiysidan Ado quyidagi mustazodni keltirib chiqaradi:

Aflok, ki chuz g‘am nafazoyand digar,
ba qavmi bashar,
Binihand yake, to biraboyand digar;
monandayi zar,
Noomadagon agar binodand, ki mo
bo in holem,
Az dahr chi mekasham, noyand digar
az pushti padar.

Mazmuni:

Falak ishi erur faqat tashvish-g‘am
bashar qavmiga,
Birin bersa etar, boshqasin barham
xuddi zar kabi,
Hali kelmaganlar bundan bexabar

biz qay holdamiz,
Dahr jafosin bilsa hatto tushmas ham
ota pushtidan.

Ado tomonidan yaratilgan quyidagi mustazod ham Umar Xayyom ruboiysi asosida vujudga kelgan:

Dar dahr kase ba guluzore narasid
xandon-xandon,
To bar dilash az zomona xore narasid
chandon-chandon,
Ba shona nigar, ki to ba sad shox nashud,
ozorayi zulm,
Dastash ba sari zulfi nigore narasid
dandon-dandon.

Mazmuni:

Gul yuzli yor dahrda nasib etmagan ekan ,
xandon-xandon,
To diliga zamondan sanchilmay tikan
chandon-chandon,
Taroqqa nazars sol, yor sochiga yetguncha,
ozorayi zulm,
Yuz bo‘lak shox qilib bag‘ri tilingan
dandon-dandon.

Ado mustazodlarining katta bir qismi Abdurahmon Jomiyning axloqiy-tarbiyaviy ruboiylari asosida yaratilgan, bunday ruboiylar qatoriga kitob haqidagi quyidagi ruboiyni kiritish mumkin:

Xushtar zi kitob dar jahon yore nest
ore, ki maro,
Dar g‘amkadayi zamopna g‘amxore nest
dar ko‘vu safo,
Har lahza az u ba go‘shayi tanhoi

dar guftu shunud,
Sad rohateast, hargiz ozore nest,
be chunu charo.

Mazmuni:

Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda
bilgilki menda,
G‘amxo‘ring ham udir g‘amli zamonda
u barcha yerda,
Tanho qolsang, u senga bermas ozor,
sen-la so‘zlashar,
Joningga yuz rohat berar har onda,
beshubha, gumon.

Yuqoridagi ruboiylar qanday chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lgan bo‘lsa, ular asosida mustazodlar yaratilganidan so‘ng ham, o‘z mazmunini yo‘qotmadi, aksincha, ularning g‘oyaviy yo‘nalishi yanada chuqurlashib, yangi bo‘yoqlar bilan qayta sayqal topdi.

Sultonxo‘ja Ado ham ustozlari kabi tasavvuf ahlidan edi. Shu bois g‘azallarida, xususan, ruboiy-mustazodlarda ham mutasavvuf shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Mahtumquli iborasi bilan aytganda, «Haqq yodi» bilan yashaydi.

Gar oshiq esang zebi takallufni unut,
sen etma g‘urur,
Yaxshi-yu yomon eshit takallufni unut,
bul yaxshi erur.
O‘lgan gar erur yomon, taassufni unut,
tutgil masrur,
Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut,
ul oriyatdur.

Ruboiy-mustazod va boshqalarda nafaqat ishq va oshiqlik, balki keltirilgan misoldagi kabi mustazodlarda falsafiy-didaktik ruh ustunlik qiladi. Quyidagi ruboiy-mustazodda ham shuni ko‘rishimiz mumkin:

Kim istasa saltanat, saxodir anga shart,
ehson qilsun,
Har va'da aylasa, vafodur anga shart,
ul topilsun.
Kim faqir talab qilsa, fanodur anga shart,
kechsun o'zdin,
Aytg'onkim kelsa: rizodur anga shart,
Haqqdin bilsun.

Biroz avvalda qayd etganimizdek, shoir ruboiy-mustazodlarda tasavvuf an'analaridan to'laqonli foydalangan. Uning asosida ko'ngil kechmishlarini bayon etgan. Albatta, matnda tasavvufiy atamalardan ham keng foydalangan. Masalan, tubandagi ikki ruboiy mustazodda buni kuzatamiz:

Bo'ldi mening o'lmaginga **savdo** bois kim,
berdim jon,
Savdog'a havoyi **jomi sahbo** bois,
etdim to'fon,
Sahbog'a dog'i **dayri** chalipo bois,
sarmast etibon
Bul barcha'ga ul dilbari **tarso** bois,
ham sarmug'on.

Yoki:

Gul-u may muyassar o'lsa gulfom **qadah**,
ham go'shayi bog',
Andin so'ng tutsa har gulandom qadah,
xush ayla dimog'.
Man aylasa barcha ahli islom qadah,
bo'lsa bir sog',
Kofirmen agar qilmasam oshom qadah,
ming tutqiz ayog'.

Ma'lum bo'lmoqdaki, mazkur misralarni sharhlash uchun diniy, xususan, aqidaviy, fiqhiy, tasavvufiy bilimlarni puhta o'rganish, ular asosida xulosa berish mumkin. Ikkinchi ruboiy-mustazod yakuniy misrasi Ibn Sinoning «Agar kofir esam man ham, Bu dunyoda musulmon yo'q» degan so'zlariga hamohangdir. Demak, bu kabi misra va baytlarni har tomonlama to'laqonli sharhlash lozim. Chunki musulmon insonni kofirga chiqarish ulkan gunoh. Imom Buxoriy Ibn Umar va Abu Hurayra roziyallohu anhumodan rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: «**Qachon kishi o'z birodariga «Ey kofir» desa, ikkovlaridan biri o'shandoq bo'ladi**», – deganlar. Demak, birovni kofir deyish shunshalik og'ir ekan, o'zini kufrda deb bilish qanchalik ulkan xato ekanini bilib olishimiz mumkin.

Tasavvufiy mazmundagi ruboiy-mustazodlarga ba'zan ijtimoiy, axloqiy-ta'limniy mavzular qorishib ketadi. Masalan, quyidagi asar «mehr»ga murojaat bilan boshlanadi.

Ey mehr, zehning qadim olam hodis,
jon senga nisor,
Izhor vujudo, kashfi zoring bois,
ayla izhor.
Kechdim bir kunida ikki olamdin,
men ketdim,
Maybin maqomin maqom solis,
ya'ni manga zor.

Ado Alisher Navoiyning «Xazoyinul maoniy» asariga kirgan o'nlab ruboiylariga mustazodlar bitgan. Quyida Navoiy ruboiylari asosida Ado tomonidan yaratilgan mustazodlardan birini namuna qilib keltiramiz va uni badiiy tahlil qilishga harakat qilamiz. Albatta, bunda asosiy mazmun, Alisher Navoiyning ruboiylarida ko'rinadi. Sultonxo'ja Ado esa ularni mustazod shakliga keltirar ekan, mazmunan boyitishga harakat qilgan.

«G‘aroyib us-sig‘ar»dan o‘rin olgan bir necha ruboiylar Ado tomonidan ruboiy-mustazodlarga aylantirilgan. Quyida ulardan birini sharhlashga harakat qilamiz.

Yo Rabki, inoyatingni yor ayla manga,
har dam, har dam,
Yo‘qluqqa hidoyatingni bor ayla manga,
qil nekqadam,
Ham kahfi kifoyatingni dor ayla manga,
aylab muharram,
Ham durri inoyating nisor ayla manga,
ey bahri karam.

Ruboiy-mustazoddan quyidagicha ma‘no yashiringan. Bu ma‘no bir musulmon kishining duosi kabidir. «Ey Robbim, menga har dam inoyatingni yor ayla! Yo‘qlikda hidoyatingni men uchun borlik etgin, xush qadamli qilgin! Hamda kifoyating g‘orini men uchun uy aylab, boshqasini harom qil! Va inoyatingning duridan menga hadya aylagin, ey karam dengizining sohibi!»

Alisher Navoiyning asarlarida ishqiy, irfoniy, tasavvufiy, tarbiyabiy, hayotiy-maishiy mavzular bor. Ular orasida munojot shaklidagi baytlar ham alohida o‘ringa ega. Jumladan, mazkur ruboiy-mustazodda ham Alloh taologa iltijo qilinmoqda.

Avvalo, o‘zini tanigan, Xudoning rohman va boshqa ulug‘ sifatlarini bilgan musulmon kishi borki, Unga duo qiladi, madad so‘raydi. Bilamizki, Navoiy ulug‘ mutassavuf, Ado ham naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan. Demak, ruboiy-mustazodda – duoda ulkan narsalar so‘ralishi aniq. Bu ulug‘ insonlarning duo ham muhim ibodat ekanini bilganlar, shuningdek, Alloh taoloning «Baqara» surasida aytgan mana bu kalimasini chuqur anglaganlar: «...**Duo qiluvchi duo qilganda, ijobat qilurman...**» (186-oyat).

Banda Yaratgandan avvalo hamisha Uning inoyati – yordami, ehsoni, lutfi, g‘amxo‘rligi, iltifotini yor qilishini so‘ramoqda. Albatta, Allohning inoyati bo‘lmas ekan, bandaning hidoyatga erishmog‘i mumkin emasdir. Inoyating bois berilgan

hidoyatni yo‘qlik, faqirlik ichra hayotimga eng yaxshi borlik – boylik qilginki, men uning sababidan har vaqt to‘g‘ri qadam tashlay, faqat ezulik yo‘lida yuray. Men uchun bu hidoyat kifoyadir. Ya’ni kifoyating jamlangan g‘or kabidir. Menga boshqa uy ne hojat? Dunyoning o‘tkinchi matohlarini harom qilgin. Sen karam, ya’ni yaxshilik, ehson, marhamat dengizining sohibisan. Menga shu dengizdan dur hadya qilgin.

Bu va boshqa ruboiy-mustazodlarda Sul-tonxon to‘ra Ado o‘zining tasavvufiy qarashlari, orzu-istaklarini bayon qilgan.

Agar shoirning barcha ruboiy-mustazodlari o‘rganib chiqilsa, ular hozirgi yozuvlarda sharhlari bilan taqdim etilsa, o‘ylaymizki, xalqimizning ma’naviy hayotida muhim voqea bo‘ladi.

XULOSA

Mumtoz adabiyot tarixini o'rganish, uning durdona merosidan xalqimiz ma'naviyati rivoji yo'lida foydalanish adabiyotshunoslikdagi zarur nazariy va amaliy masalalardan bo'lib kelgan. Zamonaviy ilm-fan bu borada ham ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Adabiyotimiz tarixidagi muhim davr hisoblangan Qo'qon adabiy muhiti va uning vakillari ham olimlar tarafidan olib o'rganilmoqda, tadqiq etilmoqda.

Mazkur dissertatsiya ham XIX asr adabiyotining namoyandalaridan biri Sultonxo'ja Adoning hayoti va ijodi, adabiy merosini o'rganishga qaratildi.

Avvalo shuni aytish kerakki, shoirning iste'dodi namoyon bo'lishi va rivojlanishida Qo'qon xonligining XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarim yilligidagi madaniy taraqqiyoti ulkan zamin yaratdi. O'sha davrdagi Qo'qon xoni Umarxon va uning rafiqasi Mohlaroyim tomonidan qilingan sa'y-harakatlar tufayli butun bir ijodiy maktab, muhit ravnaq topdi. Ayniqsa, xonning o'zi Amiriy taxallusi bilan, malika Mohlaroyim esa Nodira, Maknuna, Komila taxalluslari bilan ijod qildilar. Bu muhitni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab, ta'bir joiz bo'lsa, unga yetakchilik qildilar. Madaniyat va ma'rifatning – adabiyotning homiysi sifatida bu ikki davlat arbobi, shoir-u shoira ijod bo'stoni yashnatishdi. Saroyga mamlakatning eng yetakchi shuarosini to'pladilar, ularning ijod qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdilar.

Bu buyuk shijoat va mehnat natijasida bugun adabiyot tarixida asosiy davrlardan biri bo'lgan Qo'qon adabiy muhiti o'chmas nom bo'lib qoldi. Muhtining yuzlab ijodkorlari tomonidan yaratilgan ulkan ma'naviy meros xalqimiz uchun hozirgacha xizmat qilib kelmoqda.

Fazliy, Ado, Mushrif, G'oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy, Uvaysiy, Mahzuna, Mushtariy kabi qalam sohiblari adabiy muhitning yetakchi ijodkorlari sifatida muhitning ravnaq topishi uchun ulkan hissalarini qo'shishdi.

Mazkur davr adabiyotining mumtoz an'analarni davom ettirgani ham, o'ziga xos uslub va yo'nalishlarga ega bo'lgani ham maqtanishga arzigulikdir.

Jumladan, Fazliy tomonidan o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she’riy yo‘l bilan yaratilgan «Majmuayi shoiron» tazkirasida 19-asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitining 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma’lumotlar va asarlaridan namunalar mavjud.

Shoirlar bilan bir qatorda shoiralarning ham mana shu davrda faollashgani diqqatga sazovor. Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Mahzuna va boshqa ayol ijodkorlar so‘z olamida shoiralarning ham iqtidori, iste’dodi, salohiyati, o‘rni va mavqeyi baland ekanligini isbotladilar.

Muhit vakillari ijodida g‘azal janrida asarlar bitish keng ommalashgan edi. Badiiyatdagi an’anaviylik va novatorlik, zullisonaylik va boshqa jihatlar alohida e’tiborga molikdir. Ya’ni Qo‘qon adabiy muhitining taraqqiyoti davrlarida an’ana va mavzu ko‘lami miqyosi bo‘yicha barcha davr, aniqrog‘i an’anaviylik ustunlik qilgan davr xarakteri, anglatish usullarini qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz. Sharq uyg‘onish davri va tasavvuf adabiyoti an’alarini davom ettirish va davr ruhiyati insonlar o‘y-fikrlarini ochishda, ruhiy sezimlarga ta’sir etishda shakl muhim sanalgan. Va adabiy muhit ijodkorlari g‘azal shaklidan foydalanib, badiiy-estetik qarashlarini ifoda etishgan. Shuningdek, g‘azallarga nazira va muxammaslar yozilgani, mushoaraning rivojlanganini ham ta’kidlab o‘tmoq joiz. Janrlarda barakali ijod qilish va yangiliklar yaratish bu davr adabiy muhitining muhim jihatlaridan edi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Shu ma’noda Sultonxo‘ja Ado ham Qo‘qon adabiy muhitning yirik vakillaridan biri edi.

Mashhur mutasavvuf Ubaydulloh Ahror avlodlaridan bo‘lgan Sultonxon to‘ra Ado haqidagi batafsil ma’lumotlar mustaqillik va oldingi davrdagi adabiy tadqiqotlarda yetarli darajada uchramaydi. «Samariya», «Tazkirayi Qayyumiy», «Buyuk ma’naviy murshid», «Zapiski o Buxarskom xanstve» kitoblari, ba’zi qo‘lyozmalar va maqolalarda ma’lumotlar bor. U Amir Umarxon davrida Qo‘qonda yashagan, Amir Haydar davrida Buxoroda shayxulislomlik qilgan. Saroyidagi muhtaram a’yonlardan biri bo‘lgan. Umarxon vafotida keyin Muhammad Alixonning hukmronlik yillari boshlanadi. Bu davrda ham Ado

xonlikning siyosiy va ijtimoiy rivojlanishida maslahat beruvchi asosiy shaxslardan bo'lib qolaveradi.

Qo'qon adabiy muhiti rivojiga Ado nafaqat shoir o'laroq, balki moddiy va ma'naviy ko'maklari bilan ham hissa qo'shgan. Adoning ijodiga uning zamondoshlari ham yuqori baho berishgan.

Sultonxo'ja Adoning nomdor ijodkor bo'lgani, xonlikda alohida mavqeyi borligi sabab tarixiy jarayonlarni asos qilib olgan «Davr Nodirasi», «Jinlar bazmi» kabi asarlarda uning nomi tilga olinadi. U tarixiy asarlarda epizodik obraz sifatida ishtirok etar ekan, ularning barchasida uning o'ziga xos shaxsiyati deyarli bir xil tarzda ifodalanadi. Ya'ni uning islom ta'limotlariga amal qilishi, amirning xos a'yonlaridan ekanligi aytiladi.

G'azallarida esa tasavvufiy ruh yetakchilik qilgan qolda badiiy-estetik unsurlar takomillashadi. O'zi uchun ulug' ustozlar sifatida ko'rgan Lutfiy va Navoiy kabi shoirlarning izidan borib, ular kabi g'azallarda so'zga mohirlik bilan yondashadi. Baytlarni turli she'riy san'atlar bilan bezaydi.

Shoirning ijodida o'ziga xos o'rin tutadigan janr bu ruboiy-mustazoddir. Uning bu shakldagi asarlari talaygina. Hozirgi kunda Sharq qo'lyozmalari markazida shoirning ruboiy-mustazodlari saqlanadi. Qo'lyozmalardagi ruboiy-mustazodlarning umumiy hajmi 500 dan ziyoddir.

Ado tomonidan mustazod etilgan ruboiylar Sharqning mashhur mutafakkirlari qalamiga mansub bo'lib, ulardagi turli falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy fikrlar ifodalangan. Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud kabilarning ruboiylarni mehr bilan to'plagan va ularga mustazodlar bog'lagan.

Umuman, shoir hayoti va faoliyati ham, asarlari ham bugungi avloda o'rganishi, ma'naviy ozuqa olishi mumkin bo'lgan umr va adabiy merosdir. Shu bois keyingi faoliyatimizda ham Sultonxo'ja Ado haqida kengaytirilgan holda ilmiy ishlar qilishni maqsad qilib qo'ydik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulhamid Cho'lpon, Asarlar. 4 jildlik J. II / Cho'lpon – Qayta nashr; – Toshkent: Akademnashr, 2016. [56]
2. Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi 2-kitob (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). T.: «O'qituvchi», 1967. [42, 43]
3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., «Sharq», 2000. [16]
4. Erkinov A. «Gar Navoiyding ado so'zini o'tkarsa...» yoki Ado Navoiydan ustun bo'lmoqchimi? «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2009-yil 6-son. [54]
5. Farg'ona tarixi / Ibrat («Meros» turkumi) – T., Kamalak, 1991. [38, 52, 57]
6. G. Xolliyev, X. Gulomov. O'zbekiston tarixi. T., «Universitet». 1997. [10, 12]
7. Hakimxon, Xotiralar, T.: «Fan» nashriyoti, 1966. [39]
8. Hojiahmedov A., «Mumtoz badiiyat lug'ati», T.: «Yangi asr avlodi», 2008. [69, 73]
9. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Farg'ona tarixi. T., «Ma'naviyat», 2005. [9, 10]
10. Ismoil A. «Jinlar bazmi». Qissa. (Asarning www.ziyouz.com internet saytiga joylashtirilgan elektron shaklidan foydalandik.) [58]
11. Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz». T.7.– Toshkent. O'zbekiston, 1999. [3]
12. Mirza Karim. Mohlaroyim: Roman. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. [51]
13. Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. T., «Yangi asr avlodi», 2008.
14. Muxtorov A. Дилшод и его место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX кагом XX в.в. [15]
15. Navoiy asarlari lug'ati, T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972-yil. [43]
16. Qayumov A. «Qo'qon adabiy muhiti (XVIII – XIX asrlar)», T.: «Fan» nashriyoti, 1961. [53]
17. Qayumov A., «G'oziy», T. 1959. [42]
18. Qayumov P. «Tazkirayi Qayyumiy». – Toshkent «O'zRFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi», 1999. [39]
19. Qodirova M., «Davr Nodirasi», T.: «Fan», 199. [48]
20. Qoshingga teguzmag'il qalamni: G'azallar / Amiriy, T.: «Sharq», 2008. [4]
21. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug'ati, T.: Akademnashr, 2010. [23, 73]
22. R.Shamsuddinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T., «Sharq», 2010. [8, 13, 15]
23. Said Ahmad. «Topganlarim va yo'qotganlarim»: Xotiralar. Adabiy o'ylar. T.: «Sharq» NMAK bosh tahririyati, 2008. [57]
24. Samariya / Abu Toxirxoja – T., Kamalak, 1991. [43]
25. Sh. Karimov. O'zbekiston tarixi va madaniyati. T. «O'qituvchi» [16, 17]
26. Sharq qo'lyozmalari markazi, inv. № 4375 qo'lyozma.
27. Sharq qo'lyozmalari markazi, inv. № 4460 qo'lyozma.

28. Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 4463 qo‘lyozma. [38]
29. Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 7510 qo‘lyozma.
30. Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 8200 qo‘lyozma.
31. Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 8280 qo‘lyozma.
32. Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 9014 qo‘lyozma.
33. Vohidov SH.X., XIX–XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi, Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. T., 1998. [51]
34. Xudoyberdiyev E. «Adabiyotshunoslikka kirish», T.: «IQTISOD–MOLIYA», 2007. [54]
35. Jo‘raboyev O. «Navoiyning Ozarbayjonlik qizi» «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2009-yil 28-soni.
36. Джурабаев Д.Х. Бухарский эмират второй половины XVIII - первой половины XIX вв. в письменных источниках. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Худжанд–2014.
37. Шоев А.А., Поэтика газелей Накибхона Туграла. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Душанбе–2014.

ILOVA

Sultonxo'ja Adoning «Majmuayi shoiron» tazkirasidan o'rin olgan «Ustindadir» radifli g'azali

